

O'ZBEKISTON OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
XALQARO JURNALISTIKA FAKULTETI

XALQARO JURNALISTIKA NAZARIYASI VA AMALIYOT KAFEDRASI

XOLMURODOVA SHOHISTA TURSUNMUROD QIZI

**O'ZBEKISTONDA HUDUDIIY NASHRLAR: SHAKLI, MAZMUNI VA
MAHORAT MASALALARI (HUDUDIIY NASHRLAR MISOLIDA)**

**mavzusida 5220100 – jurnalistika (xalqaro jurnalistika) ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI”

Xalqaro jurnalistika nazariyasi va amaliyoti

kafedra mudiri, f.f.n,

dot. N.Toshpo'latova _____

2015 yil “ ____ ” _____

ILMIY RAHBAR:

F.Saidov

2015 yil “ ____ ” _____

Toshkent – 2015

HIMOYAGA RUXSAT ETILDI:

Fakultet dekani: _____ **A. Nurmatov**

Kafedra mudiri: _____ **N. Toshpo'latova**

Ilmiy rahbar: _____ **F. Saidov**

Rasmiy taqrizchi: _____

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**O'ZBEKISTONDA HUDUDIY NASHRLAR: SHAKLI, MAZMUNI VA
MAHORAT MASALALARI (HUDUDIY NASHRLAR MISOLIDA)**

**DAK qarori: o'zbek guruhi talabasi Xolmurodova Shohista Tursunmurod qizining
bitiruv malakaviy ishi**

“ _____ ” ga baholansin.

“ _____ ” 2015 yil

DAK raisi:

V. Luqmonov

DAK kotibi:

D. Fayziva

O'ZBEKISTON OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

Fakultet: Xalqaro jurnalistika

Kafedra: Xalqaro jurnalistika nazariyasi va amaliyot kafedrası

Ta'lim yo'nalishi : jurnalistika (xalqaro jurnalistika)

“Tasdiqlayman”
Xalqaro jurnalistika nazariyasi va amaliyoti
kafedrası mudiri
f.f.n., dotsent N.Toshpo'latova

“ _____ ” _____ 2015 y.

Bitiruv malakaviy ishni bajarishga

TOPSHIRIQ

Xolmurodova Shohista Tursunmurod qizi

1. BMI mavzusi: “O'zbekistonda hududiy nashrlar: shakli, mazmuni va mahorat masalalari (hududiy nashrlar misolida)”
2. BMI mavzusi universitetning 2014 yil 31dekabr 267/b-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.
3. Tugallangan ishni topshirish muddati: 2015 йил “__” may
4. Bitiruv malakaviy ishni yozishga ko'rsatma:
 - a) ishning boshlang'ich ma'lumotlari: me'yoriy hujjatlar, Prezident asarlari, mavzuga tegishli ilmiy-uslubiy va nazariy manbalar, hududiy nashrlar arxivlari;
 - б) ish tarkibi: kirish, 2 bob, 6 fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;
 - в) ishning umumiy hajmi: ____ bet;
 - г) ishning ilovasi: mavzuga oid jadvallar, hududiy nashrlardan joy olgan materiallar va tadqiqot bo'yicha chop etilgan maqolalarning nusxasi;
 - д) ishni yozish reja-jadvalini 2015 yil “__” maygacha taqdim etish;
 - е) ishni me'yoriy talablarga muvofiq rasmiylashtirish 2015 yil “__” may.
6. Topshiriq: 15.10. 2014

Ilmiy rahbar
Bitiruvchi

F.Saidov
Sh.Xolmurodova

Bitiruv malakaviy ishning har bir bob va bo'limida bajariladigan ishlarga maslahatlar

1	BMI bob va bo'limlarining nomlari	Ilmiy rahbarning F.I.SH	Topshiriq berilgan sana, imzo	
			Topshiriq berdi	Topshiriq oldi
I.	Zamonaviy hududiy nashrlar taraqqiyoti	F.Saidov	15.10.2014	15.10.2014
1.1.	O'zbekistonda regional matbuotning tarixiy bosqichlari	F.Saidov	15.10.2014	15.10.2014
1.2.	O'zbekistondagi hududiy nashrlar tavsifi shakli, mazmuni, mavzu doirasi	F.Saidov	15.10.2014	15.10.2014
1.3.	Zamonaviy hududiy nashrlar faoliyatidagi muammolar	F.Saidov	15.10.2014	15.10.2014
II.	Hududiy nashrlarda janrlar xilma-xilligi va jurnalist mahorati	F.Saidov	27.01.2015	27.01.2015
2.1.	Hududiy nashrlarda informatsion janrlar tahlili : tezkorlik va holislik	F.Saidov	27.01.2015	27.01.2015
2.2.	Hududiy nashrlarda tahliliy janrlar va jurnalist mahorati	F.Saidov	27.01.2015	27.01.2015
2.3.	O'zbekiston Respublikasi viloyatlarida faoliyat olib borayotgan hududiy nashrlarning qiyosiy tahlili	F.Saidov	27.01.2015	27.01.2015

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

1	BMI bob va bo'limlarining nomlari	Bajarish muddati	Bajarilganligi haqida ilmiy rahbar imzosi
I.	Zamonaviy hududiy nashrlar taraqqiyoti	25.01.2015	
1.1.	O'zbekistonda regional matbuotning tarixiy bosqichlari	25.01.2015	
1.2.	O'zbekistondagi hududiy nashrlar tavsifi shakli, mazmuni, mavzu doirasi	25.01.2015	
1.3	Zamonaviy hududiy nashrlar faoliyatidagi muammolar	25.01.2015	
II.	Hududiy nashrlarda janrlar xilma-xilligi va jurnalist mahorati	30.04.2015	
2.1.	Hududiy nashrlarda informatsion janrlar tahlili: tezkorlik va holislik	30.04.2015	
2.2.	Hududiy nashrlarda tahliliy janrlar va jurnalist mahorati	30.04.2015	
2.3.	O'zbekiston Respublikasi viloyatlarida faoliyat olib borayotgan hududiy nashrlarning qiyosiy tahlili	30.04.2015	

MUNDARIJA:

Kirish	3
I. BOB. ZAMONAVIY HUDUDIY NASHRLAR TARAQQIYOTI	
1.1. O'zbekistonda regional matbuotning tarixiy bosqichlari	8
1.2. O'zbekistondagi hududiy nashrlar tavsifi shakli, mazmuni, mavzu doirasi ...	26
1.3. Zamonaviy hududiy nashrlar faoliyatidagi muammolar.....	32
II. BOB. HUDUDIY NASHRLARDA JANRLAR XILMA-XILLIGI VA JURNALIST MAHORATI	
2.1. Hududiy nashrlarda informatsion janrlar tahlili : tezkorlik va holislik	37
2.2. Hududiy nashrlarda tahliliy janrlar va jurnalist mahorati	41
2.3. O'zbekiston Respublikasi viloyatlarida faoliyat olib borayotgan hududiy nashrlarning qiyosiy tahlili	53
Xulosa	58
Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati	61
Ilovalar	64

Kirish

Bitiruv malakaviy ishi mavzuining dolzarbligi: Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan buyon har bir soha rivojida ulkan istiqbolli ishlar amalga oshirilib, bu o'z navbatida O'zbekistonimizning taraqqiy etib, gullab yashnashida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Barcha sohalar qatori matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalari jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy institut sifatida shakllandi. Matbuot chinakam hayot ko'zgusi, "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga ko'tarilmoqda.

Jamiyatda ommaviy axborot vositalari o'rni, beqiyos imkoniyatlari, faoliyati kelajakdagi maqsadlari borasidagi qarashlar Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimovning asarlarida teran yoritilgan. Xususan, Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" asarida quydagi fikrlar keltirilgan: "Hozirgi davrda matbuot, ommaviy axborot vositalari shunday qudratli kuchga aylanmoqdaki, o'z kelajagini o'ylaydigan har qaysi xalq va millat buni sezmasligi, his etmasligi mumkin emas. Shu sababli ham ommaviy axborot vositalarini zamon talablari asosida rivojlantirish, matbuot va so'z erkinligi prinsiplarini amalda ta'minlashga erishish, matbuotda tanqid ruhini kuchaytirish biz uchun eng muhim maqsadlardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotga bir paytda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga tayyor bo'lish matbuot, axborot va media tarmoqlari, jumladan, televidenie va radio sohasida xizmat qilishga o'zini bag'ishlagan, yetuk mutaxassis bo'lishga ahd qilgan va bu sohada o'z kelajagini ko'rmoqchi bo'lgan ommaviy axborot vositalari hodimlarining faoliyat mezoniga aylanishi zarurligini barchamiz yaxshi anglaymiz .

Bugungi kunda har qaysi matbuot hodimi kasb mahoratini egallash bilan birga, o'z hayotiy prinsplariga ham ega bo'lishi, haqiqat uchun kurashishga intilishi, shu yo'lda qat'iyat va shijoat ko'rsatishi, lo'nda qilib aytganda, vijdon amri bilan yashashini zamonning o'zi talab qilmoqda."¹

¹Karimov I.A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Manaviyat,2008.-135 b.

Darhaqiqat, yurtboshimiz ta'kidlab o'tganlaridek, ommaviy axborot vositalari sohasida ham g'oyat muhim yangilanish va rivojlanish jarayoni yuz berayotganini, matbuotning hayot bilan hamnafas bo'layotganini mushtariylar, jamoatchiligimiz chuqur his etmoqda va anashu o'zgarishlarning amaliy samarasiga guvoh bo'lmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda markaziy nashrlar bilan bir qatorda hududiy nashrlarning ham salmoq va imkoniyat darajasi kengayib bormoqda. Yurtimizning har bir viloyatlarida, shaharlarida, qishloqlaridagi ma'naviy, ma'rifiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy sohada yuz berayotgan yangiliklardan xalqimizni xabardor etishda hududiy nashrlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy hududiy nashrlarimizda ham erkin ijod uchun, milliy qadriyatlar va boy ma'naviyatni, millat tarixini, uning bugungi sermazmun hayotini to'laqonli va haqqoniy aks ettirish uchun zarur shart sharoitlar yaratilgan.

Muhtaram Prezidentimiz bundan 3 yil oldin aytganlaridek, "Mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik jamoatchilik fikrining holatiga yetarli darajada bog'liq bo'lib, uning shakllanishida ommaviy axborot vositalariga muhim o'rin beriladi. Bugungi kunda O'zbekiston ommaviy axborot vositalarining faoliyatini tubdan isloh qilish zarurligi borgan sari ayon bo'lmoqda"²

Malumki, Respublikamiz prezidenti tashabbusi bilan 1993- yildan buyon 27 iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni sifatida keng nishonlanib kelinadi. Bayram munosabati bilan davlat rahbari o'z tabrigida milliy jurnalistikaning bugungi holati, bu borada erishilayotgan muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda galdagi vazifalarga ham alohida e'tibor qaratadi. Bundan bir necha yil avvalgi ya'ni 2009-yilda yo'llangan prezident tabrigida shunday deyilgan: "O'zbekistonimizni yanada ravnaq toptirish uchun, yurtimiz kundan-kunga qanday katta yutuq va marralarni qo'lga kiritayotgan bo'lsa, ommaviy axborot vositalari sohasida ham g'oyat muhim yangilanish va rivojlanish jarayoni yuz berayotganini, matbuotning hayot bilan hamnafas bo'layotganini mushtariylar, jamoatchiligimiz chuqur his etmoqda va

² Karimov.I.A.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent.: O'zbekiston, 1997.- B.114.

ana shu o'zgarishlarning amaliy samarasiga guvoh bo'lmoqda"³Tabrik xatida alohida ta'kidlanganidek, agar bundan o'n besh yil oldin respublikada 475 ta ommaviy axborot vositasi bo'lgan bo'lsa, bugungi kundabu raqam 1110 tani tashkil etmoqda. Xususan, ularning 600 dan ziyod viloyatlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, mavjud 90 ta nashriyot, 1300 dan ortiq matbaa korxonasi moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, mahsulot sifati yuksalib borayotgani ta'kidlanadi. Zero, jamiyat ma'naviyatini muttasil yuksaltirib borishda OAV juda keng imkoniyatlarga ega. Milliy jurnalistikaning kelgusidagi asosiy vazifalaridan biri ham ana shu imkoniyatlarni to'liq ishga solishdir.

Ta'kidlash lozimki, Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 2012 yilda O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi qoshida yetakchi jurnalistlardan iborat Monitoring guruhi tashkil etilgan⁴ edi. Ayni paytda markaziy va mahalliy nashrlarda, shuningdek, teleko'rsatuv va radioeshittirishlarda tahliliy-tanqidiy materiallarning muntazam ravishda e'lon qilinayotgani ana shu tashabbusning samarasi, deyish mumkin. Monitoring guruhi tomonidan yilning har choragida ommaviy axborot vositalarida yoritilgan masalalarning mavzusi, mazmun-mohiyati, bugungi kunimiz uchun naqadar dolzarb ekani atroflicha tahlil qilib kelinadi.

2013 yilning so'nggi choragida monitoring guruhi tomonidan o'rganilgan davriy nashrlar materiallari ham son va sifat jihatidan avvalgilaridan samaraliroq bo'lganini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Mualliflar ko'tarib chiqqan mavzular ko'lami keng va dolzarbdir.

Respublikamiz viloyatlarida, tumanlarida faoliyat olib borayotgan mahalliy nashrlarning ma'lum hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni ko'tarib chiqishdagi faolligi oshib borayotganligini bugungi kunda kuzatishimiz mumkin. Ularda nafaqat qonunbuzilish holatlari, balki e'tiborsizlik, mas'uliyatsizlik tufayli yuz berayotgan muammolar va ularning oqibatlari chuqur tahlil qilingan.⁵

³Karimov I.A. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. //Xalq so'zi, 2009 yil 27 iyun.

⁴O'zbekiston Jurnalistlari Ijodiy Uyushmasi, 2013-yilgi monitoring guruhi tahlili.

⁵O'zbekiston Jurnalistlari Ijodiy Uyushmasi, 2013-yilgi monitoring guruhi tahlili.

Ijtimoiy sohaning turli yo'nalishlarida o'z iste'dod va ijodini namoyon etayotgan jurnalistlar bugungi kun zamonaviy hududiy nashrlarining zamon talablariga mos ravishda taraqqiy topishiga xizmat qilmoqda. Shunisi e'tiborga molikki, hududiy nashrlarda tahliliy-tanqidiy maqolalarning ko'plab e'lon qilinayotganligi ham diqqatga sazovordir. Buning sababi viloyat va tumanlardagi mavjud muammolar ushbu nashrlarga ko'proq va yaxshiroq tanish ekanligida, albatta.

Hududiy nashrlar qayerda o'z faoliyatini yuritsa, o'sha yerning siyosiy-iqtisodiy holatini, rangini, shakli-tamoyilini o'zida aks ettiradi. Hududiy nashrlar ijtimoiy nazorat tizimini yoritadi, uning yordamida u alohida odamlar va jamoat o'rtasidagi aloqalarni yo'lga qo'yadi. Bizning mazkur bitiruv malakaviy ishimiz zamonaviy hududiy nashrlarning taraqqiyoti, tarixi, rivojlanish bosqichlari, hududiy nashrlarning tavsifi, shakli, mazmuni, mohiyati, mavzu doirasi, zamonaviy hududiy nashrlar faoliyatidagi muammolar va rivojlanish istiqbollari, hududiy nashrlardagi infarmatsion janrlar tahlili ya'ni tezkorlik va holislik, tahliliy janrlar, jurnalist mahorati kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi va bu mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning obykti va predmeti. Bugungi kunda Respublikamizning turli viloyatlarida faoliyat olib borayotgan hududiy nashrlar, hususan, matbuot, gazetalar, jurnallar ishning obyektini, ulardagi mavzuga doir jurnalistik materiallar esa ishning predmetini tashkil qiladi.

Tadqiqotning maqsadi - zamonaviy hududiy nashrlarning shakllanish jarayonlarini, taraqqiyot bosqichlarini, regional matbuotning tarixini o'rganishdan hamda bugungi kundagi hududiy nashrlarning mavzu doirasi, shakli, mazmuni, mohiyati, qiyosiy tahlili shu bilan bir qatorda jurnalistlar faoliyatidagi tezkorlik, holislik, tahliliy janrlardan foydalanish kabilarni keng qamrovli tarzda yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari - tadqiqotning maqsadini amalga oshirish uchun quydagi vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan:

Birinchidan, zamonaviy hududiy nashrlarning tarixiy bosqichlarini , hususan, Toshkent, Farg'ona hamda Samarqand viloyatlaridagi milliy matbuotning yuzaga kelish jarayonlarini va shakllanishini o'rganish;

Ikkinchidan, hududiy nashrlar tarixini o'rganish orqali, bugungi kunda faoliyat olib borayotgan hududiy matbuotning salohiyati va imkoniyatlarini taqqoslash;

Uchinchidan, bugungi kunda faoliyat olib borayotgan zamonaviy hududiy nashrlarning o'rni va ahamiyatini tahlil qilish;

To'rtinchidan, zamonaviy hududiy nashrlar shakli, mazmuni, mavzu doirasi va ulardagi infarmatsion janrlar tahlilini o'rganish;

Beshinchidan, hududiy nashrlar faoliyatidagi muammolar, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora tadbirlar hamda hududiy nashrlarni rivojlantirish istiqbollari o'rganish.

Mavzuning o'rganilish darajasining qiyosiy tahlili

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, mavzuni o'rganish jarayonida hududiy nashrlarning, xususan, Toshkent, Farg'ona, Samarqand milliy matbuotining yuzaga kelish jarayonlari, hududiy nashrlardagi kamchilik va muammolar, tanqidiy-tahliliy maqolalar o'rganildi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ushbu bitiruv malakaviy ishidan jurnalistika fakulteti talabalari o'zlarining bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalari, kurs ishlarini yozishda nazariy manba sifatida foydanishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi: kirish, 2 bob, 6 fasl, xulosa foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan va ilovalardan iborat.

I BOB. ZAMONAVIY HUDUDIY NASHRLAR TARAQQIYOTI

1.1 . O'zbekistonda regional matbuotning tarixiy bosqichlari

Respublikamizning turli viloyatlarida faoliyat olib borayotgan zamonaviy hududiy nashrlar faoliyati, hususan har bir viloyatdagi milliy matbuotning shakllanish jarayonlari va tarixiy bosqichlarini o'rganish ham qiziq, ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda regional matbuotning tarixini o'rganar ekanmiz, bevosita Turkiston o'lkasida milliy matbuotning yuzaga kelish jarayonlariga to'xtalmasdan ilojimiz yo'q. Chunki dastlabki davriy nashrlar, gazetalar jurnallar Turkiston o'lkasining markazi Toshkentda chiqa boshladi. Ma'lumki, Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo honliklaridan bosib olingan yerlarda o'zining tayanch markazi- Turkiston general gubernatorligini tuzdi. Garchi Turkiston o'lkasi mustamlaka ostida bo'lsada uning ilm-fani, manaviyati, ma'rifati rivojlanishdan aslo to'xtamadi. Hususan, yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Ulkan madaniy merosga ega bo'lgan Turkiston ne-ne jafolarni ko'rmadi, ne-ne tarixlarni boshidan kechirmadi. O'tgan yetmish yil mobaynida ma'naviy qadriyatlarimiz ancha toptaldi, unutildi"⁶.

Turkiston o'lkasining barcha hududlari hususan, Toshkentda , Samarqandda, Farg'onada matbuot, davriy nashrlar, gazeta va jurnallar chop etila boshlandi.

Toshkentda dastlabki davriy nashr - "Turkestanskiye vedomosti" gazetasining birinchi soni Turkiston general-gubernatori Kaufmanning farmoniga ko'ra 1870-yil 28-aprelda (10 mayda) Toshkentda bosilib chiqdi. "Turkestanskiye vedomosti" - Turkistondagi to'ng'ich rasmiy bosma gazeta hisoblanib, u O'rta Osiyoda vaqtli matbuotga asos soldi.

"Turkestanskiye vedomosti" gazetasining 47 yil mobaynida 6406 soni bosildi. "Turkestanskiye vedomosti" gazetasi general-gubernator Kaufman tomonidan tahrir qilinib chiqarildi. Uning birinchi muharriri qilib N.A.Mayev tayinlandi.

Gazeta chorizmning mustamlakachilik idora usulini o'tkazish, Turkiston xalqlarini sodiq fuqarochilik ruxida tarbiyalash, diniy jaholatni qo'llab-quvvatlash

⁶I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. "Xalq so'zi", 1993-yil, 7-sentabr.

siyosatini amalga oshirishga da'vat etgan edi. To'g'rirog'i, gazetaning dasturi Ichki ishlar vazirligi tomonidan chizib berilgan bo'lib, u asosan to'rtagina moddadan iborat bo'lgan:

1. Oliy farmoyishlar. Oliy telegrammalar, viloyat aholisiga taalluqli bo'lgan mukofot va yordamlar, tantanali kunlar to'g'risida qisqa ma'lumotlar.
2. Turkiston o'lkasiga tarqalishi lozim bo'lgan umumhukumat farmoyishlari.
3. Rus podsholarining hayotidan olingan qisqa hikoyalar, mahalliy va boshqa xil axborotlar.
4. Turkiston o'lkasidagi pochta-telegraf okrugi vaboshqa hukumat muassasalarining e'lonlari hamda xususiy e'lonlar.

Ushbu dasturga asosan "Turkestanskiye vedomosti" gazetasida: 1) rasmiy; 2) ichki axborot; 3) xalqaro axborot; 4) nafis adabiyot; 5) mahalliy axborot bo'limlari tashkil etilgan edi⁷.

Gazeta materiallari janr e'tibori bilan xilma-xildir. Uning sahifalarida xabar, korrespondensiyalar, ocherklar, yo'l xotiralari, publitsistik maqolalar e'lon qilingan.

"Turkestanskiye vedomosti" Peterburg, Moskva, Vladivostok kabi Rossiya imperiyasining boshqa shaharlarida o'zining muxbirlariga ega edi. Gazeta sonlarida o'lkaning madaniy hayotiga doir masalalar xam yoritilgan. Lekin hukumat siyosatini ifoda etuvchi rasmiy organ "Turkestanskiye vedomosti" xalqning axvoli va kurashi to'g'risida lom-lim demas edi.

Turkistonda birinchi o'zbek tilidagi gazeta "Turkestanskiye vedomosti"ning bevosita yordami tufayli vujudga keldi. Bu gazeta "Turkiston viloyatining gazetasi" bo'lib, u 1870 yilning iyulidan 1917 yilning fevraliga qadar chiqib turdi. Turkiston general gubernatori general Adyutant Fon Rozenbax 1885 yil yanvarida mahalliy xalq orasida rus tilini targ'ib qilish uchun "Turkiston viloyatining gazetasi"ni ikki tilda: o'zbek va rus tillarida nashr etish haqida rasmiy buyruq bergan edi.

⁷ Abduazizova. N. Toshkent matbuoti. Toshkent.: "Akademiya" 2010 yil.- 23b.

"Turkiston viloyatining gazetasi" o'zbek madaniyati, san'ati va adabiyotining taraqqiyotida alohida o'rin tutadi, uning sahifalarida tarix, etnografiya, arxeologiya, numizmatika fanlariga doir o'nlab maqolalar chop etib borilgan.

Milliy matbuotning shakllanishida jadidlar harakati muhim rol o'ynadi. Chunonchi, Turkistonda 1906 yil 27- iyunida jadidlar tomonidan "Taraqqiy" gazetasi chiqarila boshlandi. "Bu gazeta tez fursatda shunday shuhrat qozondiki, — deb yozadi Abdulla Avloniy, — hatto gazeta muharriri bo'lgan Ismoil Obidiyga "Taraqqiy" ismi berildi. Hozirgacha xalq Ismoil Obidiyning ismini "Taraqqiy" deb yuritadur"⁸.

"Taraqqiy" gazetasi mahalliy aholining hayoti haqida juda ko'p yozardi, yangi usuldagi maktablarni targ'ib qilardi, reaksiyon kuchlarning fikriga qarshi chiqardi va ba'zan M.Morozovning "Russkiy Turkestan" gazetasidan ayrim maqolalarni olib bosardi. "Taraqqiy" gazetasida reklama va e'lonlar ham berib borilgan. Asosan savdo kompaniyalari va magazinlar faoliyati reklama qilingan. Xalqni o'ziga ergashtirish maqsadida bo'lgan jadidlar birinchi navbatda yoshlar masalasiga diqqatlarini qaratdilar. Gazeta mahalliy yoshlarga o'z sahifasidan keng o'rin berdi.

O'lka aholisi uchun matbuotning yangi turi hisoblanmish jurnallarning nashr etilishini muhim ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida qaramoq kerak.

Bu davr jurnalistikasi ikki asosiy xususiyat bilan xarakterlanadi. Bir tomondan, dastlabki jurnallar tizimining tashkil topishi va turlarga bo'linishi o'lkamizga ma'rifat tarqatishning yana bir yangi shakli kirib kelganligini anglatadi, ikkinchi tomondan, bu jurnallar mahalliy aholi ongiga bir qadar yot g'oyalarni singdirish bo'yicha kuchli ta'sir etish vositasi sifatida namoyon bo'lganligini ko'rsatadi.

Toshkentda rus tilida chiqqan "Sredne-Aziatskiy Vestnik" (1896 y), "Srednyaya Aziya" jurnallari xam tariximizni o'rganishda muhim manbaalardir. "Sredne-Aziatskiy Vestnik" O'rta Osiyodaga dastlabki jurnal edi. Jurnal taxriri oldida murakkab vazifa turar edi: u ilmiy ma'lumotlar to'plash, Turkistonning kundalik hayot masalalariga oid dalil va ilmiy izlanishlarni umumlashtirish yo'li

⁸ Avloniy. A "Burung'i o'zbek vaqtli matbuotining tarixi". "Turkiston" gazetasining 295-soni, 1924 yil 24 iyun "Yosh leninchi", 1989- yil 18 -iyul yoki "Milliy uyg'onish" to'plami. T., ToshDU,1993, 116-bet

bilan, yerlik mahalliy aholining o'ziga xos hayotdan olingan yorqin, jonli, manzaralar vositasida O'rta Osiyo to'g'risida aniq-ravshan tasavvur berishga intildi.

Bu adabiy nashr markazdagi rus matbuotining ijobiy bahosini oldi "Ba'zi soxalarda O'rta Osiyo chekka o'lkasi, aftidan, Osiyodagi boshqa o'lkalarimizga nisbatan ancha tez madaniy muvaffaqiyatlarga erishmoqda, na Kavkaz, na Sibir, na Amur o'lkasi rus tilida o'zining mahalliy ilmiy-adabiy jurnaliga ega", deyiladi rus arxeologik jamiyatining sharq bo'limi axborotida⁹.

"Sredne-Aziatskiy Vestnik" jurnali haqida ko'p o'tmay poytaxt va viloyatlar matbuotida ham juda ko'p ijobiy fikrlar bildirildi. Chunonchi, "Russkaya myul" "uzoq chekka o'lkalarda jiddiy matbuot organi paydo bo'lgani"ni tabriklab, "U mamlakatni o'rganish uchun ko'p ish qilishi mumkin" deb yozdi¹⁰.

Jurnalda bilimning hamma sohalariga, asosan, O'rta Osiyo tarixi va arxeologiyasi, geografiyasi va tipografiyasi, statistikasi va etnografiyasiga oid ilmiy maqolalar, shuningdek, mahalliy obzor, bibliografiya va e'lonlar bosilar edi. Jurnalning asosiy fazilati shundaki, u mahalliy musulmon axolisining turmushini tadqiq qildi hamda tarix va arxeologiyaga oid maqolalar berib bordi. V.Bartold ushbu jurnal xususida quyidagicha fikr bildirgan edi: "Ko'plab qiziqarli materiallarni yoritayotgan nashrlar, afsuski, nihoyatda cheklangan nusxada bosilmoqda va Peterburgga deyarli butunlay yetib bormayotir"¹¹.

Mazkur jurnal sahifalarida O'rta Osiyo tarixi va arxeologiyasini o'rganish soxasida ushbu mintaqa etnografiyasini ishlab chiqishga bebaho hissa qo'shgan mashxur sharqshunos V.V.Bartold (1869-1930)ning xizmati katta. Sharq tillarini yaxshi bilganligi unga O'rta Osiyo tarixi bo'yichagina emas, balki "Musulmon sharqi" tarixi yuzasidan ham juda ko'plab dastlabki manbalarni sinchiklab o'rganish imkonini berdi. Uning jurnalda bosilgan "O'rta Osiyodagi oriylar madaniyati to'g'risida bir necha so'z" maqolasi O'rta Osiyoni o'rganish ishiga qo'shilgan muhim hissadir.

⁹ Zapiski russkogo arxeologicheskogo obshestva. Vostochnoye otdeleniye. T.X., 1896, s. 203-205.

¹⁰ Abduazizova. N. Turkiston matbuoti tarixi. Toshkent.: "Akademiya" 2000 yil.- 63b.

¹¹ O'sha manbaa. 62-63betlar.

"Sredne-Aziatskiy Vestnik" atigi bir yil chiqib turdi. Jurnal asosan ma'rifat g'oyalarini targ'ib qilgan bo'lib, o'lkada ruslar tomonidan olib borilayotgan "maorif" sohasidagi o'zgarishlar xususida alohida e'tiborni jalb etadigan maqolalar e'lon qildi. Ammo Turkistonda "Sredne-Aziatskiy Vestnik" jurnalining nashr etilganligi va uning saxifalarida o'lka to'g'risida ilmiy maqolalar, shuningdek, "Musulmonlarning muqaddas Makka shahri". "Musulmonlarda ta'lim masalalarining qo'yilishi", V.Bartoldning "Bir tarixiy masala xususida", O.Shklovskiyning "O'rta Osiyo ko'chmanchi ayollarining ahvoli" kabi yirik-yirik asarlari ham bosilib chiqdi.

«Srednyaya Aziya" - adabiy-ilmiy oylik jurnal 1910-1911- yillarda A.L.Kirsner tahriri ostida bosilib chiqdi.

1911- yildan "Srednyaya Aziya"ning dasturi va yo'nalishi avvalgi yildagidek O'rta Osiyo va umuman Turkistonga bag'ishlanadi. Jurnal asosiy e'tiborni musulmonchilik masalalariga yoki tarixiy va etnografik xarakterdagi materiallarga qaratdi. Ammo bu asarlarni bir xil mavqeda deb bo'lmaydi.

"Srednyaya Aziya" jurnalida "Toshkent sartlari haqida qo'qonliklarning latifalari", "Tarixiy ikir-chikirlar", N.Budzinskiyning "Toshkent sartlarining xalq she'rlari" kabilarda masxaraomuz yozilgan fikrlar ko'p uchraydi¹². Bular haqida fikr bildirgan "Turkestantskiye vedomosti"ning e'tirofi ham diqqatga loyiq.

Ayni chog'da "Srednyaya Aziya" jurnali o'z sahifalarida o'zbek xalqining adabiy merosiga ham keng o'rin beradi. Bu jihatdan sharqshunos olimlar V.P.Nalivkin, N.P.Ostroumov, N.P.Vasilev, V.V.Bartold va N.S.Likoshinlar xalq orasida bo'lib, o'zbek mumtoz adabiyoti asarlarini rus tiliga o'g'irgan holda jurnalda targ'ib etdilar. Jurnalning Sharq she'riyati namoyandalari asarlariga e'tiborni qaratishi tahsinga loyiq, albatta.

"Srednyaya Aziya"jurnalida Edvar Xolden qalamiga mansub "Buyuk Temurlang" asarining bosilib chiqishi katta axamiyatga molikdir.

Keyinchalik Toshkentda rus tilida "Turkiston chayoni" (1907), "Turkiston qora qurti" (1911) kabi hajviy jurnallari, o'zbek tilida esa "Oyina" (1913-1915), "Al-islox"

¹² Abduazizova, N. Turkiston matbuoti tarixi.Toshkent.: "Akademiya" 2000 yil.- 67b.

(1915) milliy jurnallari hamda "Al-izoh" (1917) va "So'l saroblari" (1914) kabi almanaxlar ham paydo bo'ldi¹³.

1907 yil 1 dekabridan Toshkentda A.Avloniy muharrirligida "Shuhrat" gazetasi chiqa boshladi. Shuningdek, Toshkentda "Tujjor" (1907, muharriri Saidkarim Saidazimboy o'g'li), "Osiyo" (1908, muharriri Ahmadjon Bektemirov) kabi gazetalar ham chiqa boshladi. Bu gazetalarning hech biri uzoq yashay olmadi. Ayrimlari iqtisodiy, ba'zilari esa siyosiy sabablar bilan berkitildi.

Keyinchalik Turkistonda, hususan Toshkentda o'zbek tilidagi dastlabki mustaqil nashrlar chiqa boshlagach, ular asosan jadidlarning qarashlarini, ilm-ma'rifat masalalarini o'zida ifoda etgan. Masalan, yuqorida sanab o'tgan jadid gazetalariga bunga misol bo'ladi. Biroq ularning ba'zilari chor ma'muriyati tomonidan yopib qo'yilgan bo'lsa, boshqa milliy nashrlar aksariyat hollarda moliyaviy qiyinchiliklar tufayli chiqishdan to'xtagan. Shuning uchun ham biz uchun jadidlar davri matbuotining iqtisodiy ahvolini o'rganish ham qiziq, ham muhim sanaladi.

Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, Toshkent milliy matbuotining yuzaga kelishi va rivojlanish jarayonlarini o'rganishda jadidlar davri matbuoti eng muhim o'rinni egallaydi. Xususan, Abdulla Avloniy kabi vatanparvar, millatparvar insonlarning bu boradagi qilgan sa'y-harakatlari ham o'rnak, ham andozadir. Matbuot endigina tashkil topganiga qaramay, obuna, reklama va e'lonlarga e'tibor qaratilgani, o'ziga xos boshqaruvchilik, gazetaning iqtisodiy asosi o'sha davrlardan shakllana boshlaganligidan dalolat beradi.

Hududiy nashrlarimiz tarixi borasida to'xtalar ekanmiz **Farg'ona milliy matbuotining** yuzaga kelishi va shakllanish jarayonlarining keng qamrovli ekanligiga guvoh bo'lamiz. «Ferganskiye oblastnme vedomosti» (Farg'ona viloyat axbori) degan hukumatning rasmiy gazetasi vodiya 1907 yilning 1 yanvaridan monarxiya ag'darilgunigacha — 1917 yilning iyunigacha chiqibturdi. Bungacha ham «Fergana» (1906), «Novaya Fergana» (1906), «Kokandskiy listok» (1908 —1909)

¹³ Abduazizova. N. Toshkent matbuoti. Toshkent.: "Akademiya" 2010 yil.- 23b.

kabi gazetalar nashr qilingan¹⁴. Bularning barchasi mustabidlarning manfaatiga xizmat qiluvchi nashrlar edi. Vodiy aholisining manfaatlarini himoya qiladigan, ularga erk, istiqloq uchun kurash g'oyasini singdiradigan gazetalar XX asrning 10-yillaridan so'ng yuzaga keldi. Toshkentda 1906 yilning 14 (27) iyunida tashkil qilingan «Taraqqiy» gazetasi o'lkada milliy matbuotning to'ng'ichi bo'lgandi. Bu gazeta chor hukumati tomonidan to'xtatilgach, «Xurshid», u chiqishdan man qilingach, «Shuhrat», u ta'qiqlangach «Osiyo» kabi gazetalar birin-ketin paydo bo'ldi. Milliy matbuotni butunlay to'xtatishni mustabid hukumati eplay olmay qoldi. Toshkentda nashr qilingan mana shu gazetalar Farg'ona vodiysida ham milliy matbuotning yuzaga kelishi uchun muhim omil, o'ziga xos tajriba maktabi bo'ldi. Birinchi bo'lib bu ishga Obidjon Mahmudov kirishdi. U Qo'qonda matbaa tashkil etib, unda «Sadoi Farg'ona» degan gazetani nashr qilishni yo'lga qo'ydi.

«Sadoi Farg'ona» gazetasi. Farg'ona viloyatida chiqqan ilk milliy gazetadir. Muharrir va noshiri — tog'-kon mutaxassisligi bo'yicha muhandis Obidjon Mahmudov. 1-soni hijriy 1332 yilning 22 jimodulavvali, milodiy 1914 yilning 3 aprelida chop etilgan. Adadi 1500 — 1700 nusxa atrofida bo'lgan. Uning maqsad va maslagi ilk sonida muharrir tomonidan quyidagicha belgilanadi: «G'azetani nashrdan maqsadimiz albatta tijorat emas, balki xalqimizg'a qo'limizdan kelgan qadar xizmat etmakdir»¹⁵. Ta'kidlash joizki, gazetada ishtirok etish ancha demokratik tamoyillar asosida belgilangan. Obidjon Mahmudov gazetaning ikkinchi sonida «G'azeta nadur va na uchun lozim» degan maqolani e'lon qilgan. Aftidan, u «Sadoi Farg'ona»ning 1-sonidagi «Maslak va maqsad» dasturiy xarakterdagi maqolasida matbuot to'g'risida bildirgan fikrlaridan qoniqmagan shekilli, uni yana to'ldirgan. U gazetaga shunday ta'rif beradi: «G'azeta butun dunyodagi madaniy millatlarning tirikchilik yo'llari, olamdagi darajalari va ham olami insoniyat eng taraqqii taolosi (taraqqiysining eng yuqorisi) uchun lozim bo'lg'on sa'y va harakatlari to'g'risida bir-birlari birlan mudovalai afkor (maslahatlashmoq va kengashmoq) uchun lozim bo'lg'on bir

¹⁴ Farg'ona jurnalistikasi .Toshkent. «Sharq», 2009 y.6 b.

¹⁵ Farg'ona jurnalistikasi .Toshkent. «Sharq», 2009 y.7 b.

vositadur». Bunda u insonlarning turli masofalardan turib o'zaro fikr almashishlari uchun matbuot vujudga keltiradigan imkoniyatni alohida ta'kidlagan.

«Sadoi Farg'ona»ning 3-sonida Ashurali Zohiriyning «Ona tili» sarlavhali maqolasi bosilgan bo'lib, unda milliy tilning boyishi va ravnaq topishida matbuotning ahamiyatiga shunday baho berilgan: «...g'azeta va jurnallar-ning dunyo ahvolidan va boshqa to'g'rilaridan xalqg'a xabar berub turmog'idan boshqa ulug' va ko'zg'a ko'rinmaydirg'on foydasi bo'lurki, ul ona tilining kengaymog'i va mukammallashmog'idir.

Gazeta til masalasiga bot-bot qaytib turgan. Jumladan, uning 118-sonida «Til bilmas» imzosi ostida «Til va imlo masalasig'a javob» sarlavhali maqola bosilgan bo'lib, unda mazkur mavzuda «Sadoi Turkiston» gazetasida ko'tarilgan munozaraga munosabat bildirilgan.

XX asr boshlarida chiqqan barcha milliy gazetalar singari «Sadoi Farg'ona» ham maktab va madrasalar islohi masalasiga e'tibor berdi. Uning birinchi sonida Shokir Muxtorovning «Islohni nimadan boshlarg'a?» sarlavhali maqolasi bosilgan. U anchagina munozaralarga sabab bo'ldi. Muallifning yozishicha, har jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarning tajribasi ko'rsatadiki, ular shu darajaga ibtidoiy tarbiyani mukammal yo'lga qo'yganlari sababli erishganlar, shu bois ishni, eng avvalo, ibtidoiy maktablarni isloh qilishdan boshlash kerak.

«Sadoi Farg'ona»dagi talaygina materiallar Turkiston yerlarining serhosilligini, kimki tadbirkorlik, mohirlik bilan ish yuritsa, albatta, boyib ketishi mumkinligini anglatishga bag'ishlangan.

«Sadoi Farg'ona» gazetasi ham birinchi jahon urushi voqealarini imkoni darajasida yoritib borgan. Gazeta Turkiyaning jahon urushiga aralashuvi masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Xalqaro ahvol masalalarini turli gazetalardan iqtibos olgan holda, Peterburg (1914 yil iyul-dan boshlab Petrograd) telegraf agnetligining xabarlariga tayangan holda yoritgan. Urush boshlanganidan ko'p o'tmay, «Sadoi Farg'ona» harbiy senzura nazoratidan o'tadigan bo'ladi. Shu bois uning ayrim

sonlarida ochiq (bo'sh) joy-lar mavjud, Bular, shubhasiz, harbiy senzura tomonidan olib tashlangan materiallarning o'rnidir.

Gazetada umum Rusiya musulmonlari s'ezdi va kengash-lari ham yoritib borilgan. Jumladan, «Musulmonlar itti-foqi» tashkilotining ruhoniy idoralar yuzasidan tuzil-gan loyihaning muhokamasiga bahishlab 1914 yil iyun oyida Peterburgda o'tkazgan kengashTG majlislari haqida xabar va maqolalar bosilgan.1914 yil sentyabr oyidaIsmoil Gasprinskiy vafoti munosabati bilan talaygina materiallar berilgan.

«Sadoi Farg'ona» gazetasida adabiy-badiiy asarlar ham muntazam bosilib turgan. Hamza, Tavallo, Vasliy, Hayrat, Is'hoqxon To'ra (Ibrat), Mirzajon Mirzaabror o'g'li Ka-molov, Sayyoh Darvish, mulla Hoshimxon Muhammad Solih o'g'li va boshqalarning she'rlari chop qilingan. Nasriy asarlar uchramaydi. Safarnomalar ham yo'q hisobi (1 — 2 ta yo'l ocherkini istisno etganda). Gazetada adabiy tanqid janrlari oz bo'lsa-da, uchraydi.

«**Tirik so'z**» gazetasi. 1917 yilning 2 apreldan Qo'qonda nashr etila boshladi. U o'zini mushtariylariga shunday tanishtirgan: «haftada 3 marta chiqadurgon adabiy, iqtisodiy, taraqqiy gazetadur»¹⁶. Muharrir va noshiri Obidjon Mahmudov. «Pechatnoye Delo» matbaasida chop etilgan. Gazeta dastlabki sonidayoq Turkiston general-gubernatori bo'lgan Kuropatkinning 1917 yil 31 martda uy qamog'iga olinganini, xarkovlik Kovrov degan shaxsning o'zini noqonuniy tarzda Sibirga badarg'a qildirgani uchun Rossiya taxtidan ag'darilgan Nikolay Ikkinchidan 50000 rubl undirish uchun sudga da'vo kiritgani to'g'risidagi xabarlarni bosgan. Rossiyadagi barcha fuqarolarning milliy va diniy huquqlarini tenglashtirish yuzasidan Muvaqqat hukumat qabul qilgan hujjatni gazeta xuddi shu sonida chop etgan. Unda Turkiston xabarlari bilan bir qatorda, Farg'ona muzofoti va Qo'qon shahrida sodir bo'lgan yangiliklar muntazam berib borildi. «Sho'roi islom»ning faoliyati, amalga oshirayotgan ishlari yoritilib turdi. Hurriyatni, yangi zamon o'zgarishlarini

¹⁶ Farg'ona jurnalistikasi .Toshkent. «Sharq», 2009 y.24 b.

olqishlagan she'rlarni chop etdi. Gazeta reklama va e'lonlarga ham o'z sahifalaridan anchagina o'rin ajratdi.

«Tirik so'z»ning qancha son va qachongacha chiqqani hozircha aniqlanmadi (taxmin qilinishicha, 20 son qadar chiqqan).

Farg'onada 1917 yilga kelib ma'lum muddat «Farg'ona sahifasi» (1917 yil 15 martdan chiqqan), «Farg'ona nidosi» (1917 yil 15 noyabrdan chiqqan), «Ravnaq ul-islom», «Xalq g'ayrati» kabi gazetalar ham nashr etilgan. Bu gazetalardan ikkisinining muharriri Husayn Makayev, uchinchisining Toshmuhammad Nurmuhammad o'g'li degan shaxslar bo'lgan. Mazkur gazetalar o'sha paytda viloyat ijtimoiy-siyosiy hayotida muayyan ro'l o'ynagan. Muhimi, u yerdagi ijtimoiy-siyosiy voqealarga munosabatini ochiq bildirgan. Jumladan, «Farg'ona sahifasi»ning 11-sonida «3. M.» imzosi ostida «Andijonda O'rta maslak jamiyati» sarlavhali maqola bosilgan. Muallif Muharririyat maqola muallifiga millatning bundan keyingi taraqqiysi millat a'zolarining ittifoqligi va birdamligi tufayligina yuzaga kelishini, ta'lim va tarbiyaning tamomi islomiyatga muvofiq bo'lishi erkin jamiyat — jumhuriyat barpo etish bilangina amalga oshishi mumkinligini tushuntirib qo'yadi.

«**El bayrog'i**» gazetasi. 1917 yilning 8 sentyabridan Qo'qon shahrida chiqqan boshlagan siyosiy, adabiy va ijtimoiy gazeta. Dastlabki muharriri Astraxan viloyatida tug'ilib voyaga yetgan, asli o'zbek, yashash sharoitiga ko'ra tatarlashgan Bo'lat Soliyev degan tarixshunos olim, keyin unga Ashurali Zohiriy hammuharrir. Noshiri Qo'qondagi «G'ayrat» ku-tubxonasi. Adadi 800 —1000 nusxa atrofida. Mix bosmada chop etilgan.

«El bayrog'i»ning 1917 yil 28 sentyabrda chiqqan 3-sonida umum Turkiston musulmonlarining 8 sentyabrda ish boshlagan ikkinchi s'ezdining dastlabki majlislari yuzasidan hisobot bergan. Unda asosiy masala oziq-ovqat, ya'ni g'alla muammosi bo'lgan. S'ezd ahli oziq-ovqat masalasining og'irligi shundoq ham ayon bo'lgani uchun so'zlovchilardan g'alla topish choralariidan gapirish talabini qo'ygan. «El

bayrog'i»ning 8-sonida esa Farg'ona musulmonlarining 7-s'ezdi yuzasidan hisobot bosilgan¹⁷.

“El bayrog'i ” gazetasida da'vat ruhidagi materiallar muntazam berib borilgan. Jumladan, uning 1918- yil 26 yanvarda chiqqan sonida Cho'lponning «Umid sizdan!» sarlavhali maqola-da'vatnomasi e'lon qilingan. Unda muallif zo'r umidlar bilan erishilgan muxtoriyatni Turkiston xalqi himoya qilishi kerak, degan fikr va ishonch ilgari surilgan.

«El bayrog'i»ning shu sondagi «Muxtoriyatli millatlar va bolsheviklar» sarlavhali maqolasida shu paytgacha milliy zulm iskanjasida qolib kelayotgan millatlardan ayrimlari muxtoriyat e'lon qilib, uni mustahkamlayotgani bayon qilinadi. Chunonchi, Ukraina shu yo'ldan bormoqda. Filandiya muxtoriyatini bolsheviklar tan olishga majbur bo'ldi. «Qrim va Kavkazlilar bo'lsa, bolsheviklar zo'ravonlik qilishidan yiroq bo'lub oldi, bolsheviklarning xohlaganlaricha ish yurutmaklarig'a onda o'run yo'qdur». Shundan so'ng gazeta so'zni Turkistonga buradi. «Biz turkistonlilar ham muxtoriyat e'lon qildik, — deb yozadi. — Biz ham boshqalar qatorida borishni xohladik va boshqalardan bizning haqimiz zo'rroq ekanligini bilub g'oyat zo'r tantana bilan Turkistonning har bir shahrida, qishloqlarida muxtoriyat namoyishi yasalib, muhofazasida molimiz va jonimiz bilan tayyorligimizni aytdik. «Muxtoriyat uchun jonimiz fido bo'lsun!» dedik... Muxtoriyat e'lon qilib qasam va bay'at qilg'on (unga tobe bo'lishni tan olgan) xalq oni saqlashni ham bilmoki, birlik va ittifoqlik bilan harakat qilmog'i lozim».

Gazeta imkoni boricha xalqni Turkiston muxtoriyatini saqlab qolishga da'vat qilib, o'z kuchiga ishontirishga urindi. Lekin bolsheviklar o'zlarining qabih rejalarini amalga oshirish uchun hech narsadan, hatto g'irt yolg'onchilik, tuhmat kabi pastkashlikdan, voqelikni, haqiqatni tan olmay, na qonunga, na vijdon amriga bo'ysunishlarini ko'rsatdilar. Milliy zulm ostida ezilib kelgan millatlarning muxtoriyatlarini qonga beladilar. Turkiston muxtoriyatining taqdiri ham shunday bo'lgandi.

¹⁷Farg'ona jurnalistikasi .Toshkent. “Sharq”, 2009 y.27 b.

O'zbek matbuoti tarixining tadqiqotchisi Ziyo Saidning yozishicha, «El bayrog'i» yigirma son atrofida chiqib, Turkiston muxtoriyati bostirilishi bilan bolsheviklar tomonidan to'xtatilgan.

«Kengash» jurnali hijriy 1335 yilning 15 jimodul-oxiri, milodiy 1917 yilning 8 martidan Qo'qonda o'qituvchilar jamiyati tomonidan chiqarila boshladi. Muharriri muallim Hamza Hakimzoda. 1 va 2-sonlari sakkiz, 3-5-sonlari 16 sahifali bo'lib chiqqan. Jurnal maslak va maqsadini bayon etuvchi an'anaviy maqola bermagan. 1-sonida ta'kidlanishicha, u «Har ikki haftada chiqadurgon ta'mimi maorifdan bohis (ma'rifat yoyishdan bahs etuvchi) jurnal»¹⁸.

«Kengash»ning 1-sonida Hamzaning yana bir bosh maqolasi bosilgan bo'lib, «Muallimlar dovushi» deb ataladi. Unda muallif hurriyatga erishilganlik munosabati bilan mahalliy aholi, shu jumladan, muallimlar ham o'z haq-huquqlarini talab qilishlari lozimligini eslatarkan, «jurnal chiqarib va jurnal vositalik tarafdorlarimiz bo'lgon g'ayrat va tashabbuskor yoshlarimizga talab va orzumizni eshitdirub tursok» degan niyatda «Kengash» chiqarilganini anglatadi.

Mazkur maqolada o'qituvchilarning o'sha davrda ko'rsatgan xizmatlariga bir qadar tavsif ham beriladi, «...yigirma yillardan beri naqadar qisinqiliklar; bir taraf eski hukumat va bir tarafda nodon xalq ham bir tarafda qora kuch va missionerlar va alalxusus, maishat, kamchilik tiru o'qlari bila o'pka va jigarlari g'alvir shaklig'a kirub ketgon, yigirma yillardan berli yuz minglarcha xalq ila murosa-madora qilub bolalarin tarbiyalab, yoshlarning maqsadlarining ishonchlik bir natijani xalq ko'zig'a ko'rsatub «Mana, xalq, ko'ringiz, yoshlar bolalaringizni tarbiya topsun, ilm-ma'rifat hosil qilsun, g'ayri millatlarg'a xor-zor bo'lmasun», deb va atrofga muallimlar yetishdurub, o'z shaxsiy manfaatlarin, orzu va havaslarin butun orqag'a tashlab, rohat va osoyishlarindan kechub, qo'l, oyoq, til va qalam, aqchalari, qisqasi, butun vujudlari ila maktab olamiga xizmat qilib kelgon»¹⁹ligi eslatiladi.

¹⁸ Farg'ona jurnalistikasi .Toshkent. "Sharq", 2009 y.35 b

¹⁹Farg'ona jurnalistikasi .Toshkent. "Sharq", 2009 y.36 b.

Hamza muallimlarning o'z davridagi moddiy va ijti-moiy ahvolini tavsif etibgina qolmay, ularning oldida turgan muhim vazifalarni ham eslatadi, muallimlar xayriya jamiyatlariga a'zo bo'lishib, maktab dasturlari hamda uning moddiy va ma'naviy ta'minoti yuzasidan maslahat-lashishlari va bu borada jiddiy natijalarga erishishlari lozimligini uqtiradi.

«Kengash»ning 1-sonida Rahimjon hoji Tursunxo'ja o'g'li «Muallimlar: haqiqatga bir nazar» sarlavhali maqolasida maorif xodimlarini ittifoq va ittihadga chaqirgan.

Jurnalning ikkinchi sonidan boshlab maqolalar umumiy ruh olgan. Mazkur sonda muharrir tomonidan yozilgan «Islomiyat va hurriyat», «Muallim M.O'» imzosi bilan «Bukun qanday kun?» sarlavhali maqolalarida hurriyat va undan qay tarzda foydalanish masalasi ko'tarilgan. «Bukun qanday kun?» maqolasida Butunrossiya musulmonlarining o'zlari uchun muhim hayotiy masalalarni muhokama qilish uchun may oyida chaqiradigan s'ezdiga Turkistondan vakillar yuborish masalasi haqida ham so'z yuritilib, u yerga boradigan vakillarimiz rus tilida gapira oladimi, yo'qmi, gapirganda ham, e'tiborga sazovor fikrlarni ayta oladimi, degan muammo o'rta tashlanadi. Muallif s'ezdga munosib vakillar yuborishning yagona yo'li — qaysi shaharda bo'lmasin, bunday kishilarni izlab topish kerak, deydi. Buning iloji bo'lmasa «...bo'lmadi deb qolmay, umumtotor va Qofqoz musulmonlarining holonki ish boshidagi zotlarini keynidan qolmay, Qofqoz va Totoriston musulmonlari nima bo'lsalar, biz ham shul, deb turishdan boshqa chora qolmaydur», deb yozadi.

«Kengash»ning 2-sonidan kavkazlik shoir Muhammad Hodi Shirvoniyning «Musulmonlarga tabrik» she'ri o'rin olgan.

Jurnalning uchinchi sonida muharrir tomonidan yozilgan «Vatandosh dindoshlar!» xitob ruhidagi bosh maqolada Rossiyaning bo'lg'usi davlat tuzumiga musulmonlar befarq qaramasliklari lozim, zarur bo'lsa, o'z fikrlarini bayon qilishlari darkor, degan masala ko'tarilgan.

Ushbu sondagi «Maktab bolalari uchun fanniy o'yunlar» sarlavhali material mazmunan qiziqarlidir. «Kengash»ning to'rtinchi sonidan «Islomiyat mone'i tahsil va

taraqqiy emas», muallim Hakimjonning «Felyatun» ruknida «Tabi'at» (tabiat sirlarini bilish uchun ilm-ma'rifat lozimligi, ilm-ma'rifatga erishish uchun esa millatda ittifoqlik, hamjihatlik zarurligi haqida bahs yuritilgan), Yaponiyada chiqadigan «Jiji shimpu» gazetasi materiallari asosida «100 sana yashamoq uchun», shuningdek, «Tarixi Farg'ona» (3-sonda bosilgan materialning davomi), «21- may Namanganda» sarlavhali maqola va «Adabiyot» ruknida bir she'r o'rin olgan.

“Kengash” jurnalining beshta soni chiqqandan so'ng to'xtagan.

«**Hurriyat**» jurnali. 1917 yilning 7 apreldan chiqa boshlagan. Uning dastlabki ikki soniga Hamza Hakimzoda Niyoziy muharrirlik qilgan. Noshiri Hoji Rahimjon Shodi. Hamza jurnalning 1-sonida «Hurriyat» sarlavhali tabriknoma yozib, barcha vatandoshlarini «abadiy ozodlik» olinganligi bilan qutlaydi. Uning «Bukungi qadrlik kun-lar!» sarlavhali maqolasi ushbu tabriknomaning davomi sifatida berilib, unda yetishgan kunlar nimasi bilan qadrli ekaniga izoh berilgan.

«**Yurt**» jurnali. «Siyosiy, ijtimoiy, tarixiy va adabiy haftalik majmua». Muharriri hamda 1—2-sonlarining noshiri Ashurali Zohiriy. 3-sonidan noshirhoji Mavlon Ashurboyev. Jurnal 1917 yilning 1 iyunidan chiqa boshlagan. Shiori «Yashasun muxtoriyatli xalq jumhuriya-ti!» Adadi ming nusxa atrofida. Qo'qondagi I. I. Vayner tipo-litografiyasida chop etilgan. 1-sonida jurnal tahri-riyati tomonidan «Maqsad va omolimiz» sarlavhali maqola e'lon qilingan bo'lib, unda nashrdan ko'zlangan maqsad va niyat bayon etilgan. Bosh maqolaga nemis mutafakkiri Shil-lerning quyidagi gapi epigraf tarzida keltiriladi: «Eskilik vayron bo'lub, azmon o'zgarub, xarobalarda yangi hayot ochiladur». “Yurt” jurnalining qancha soni chiqqani aniq emas, Toshkent kutubxonalarida 1,3-sonlari mavjud.

Bir so'z bilan aytganda, Farg'ona vodiysida ham huddi Toshkentdagi singari milliy matbuotning shakllanishi va yuzaga kelish jarayonlari o'zbek matbuoti tarixida muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizning turli viloyatlarida faoliyat olib borayotgan zamonaviy hududiy nashrlar faoliyati, hususan har bir viloyatdagi milliy matbuotning shakllanish jarayonlari va tarixini o'rganish ham qiziq ham muhim ahamiyat kasb etadi zero,

Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek : "O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagiyo'q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko'p bora o'z isbotini topgan".²⁰

Samarqand milliy matbuotining yuzaga kelish jarayonlari va tarixini o'rganish ham qiziq, ham dolzarbdir, chunki Samarqand o'zining boy madaniy va ma'naviy tarixiga ega bo'lgan viloyatlarimizdan biri sanaladi.

Samarqandda 1913-yil aprel oyidan "Samarqand " gazetasi chiqa boshlagan. Bu gazeta Samarqand taraqqiyparvar ma'rifatchilarining to'ng'ich gazetasi bo'lib, u Mahmudxo'ja Behbudiyning mas'ul muharrirligi ostida chiqa boshlagan. Tepasida: "Mahalliy turkiy va forsiy o'rta shevada ilm-fan, adabiy, tijorat, hunar va ziroatdan, Rusiya ahvoli va madaniyati va xorijiy mamlakatlari holidan va olami islom tirikligidan yozuvchi madaniyat musavvir tasviriy suratli jaridadir"²¹ deyilgan.

"Samarqand" gazetasining bosilish jarayonida unga 2 marta ruxsat olingan bo'lib, birinchisi 1913- yil 10- aprelda beriladi va shundan so'ng gazeta chiqa boshlaydi. Shu bilan birga Behbudiy negadir 1913 yil 23 may kuni Samarqand viloyati harbiy gubernatoridan "Yangi Samarqand" ("Samarqandi nav" - "Noviy Samarkand") nomli gazeta chiqarishga ruxsat berishini so'rab yana ariza yozadi.

Bu haqda Avsharovaning "Russkaya periodicheskaya pechat v Turkestane (1870-1917 g.g.)" kitobida shunday deyiladi: " Mahmudxo'ja Behbudiy nashr etgan bu gazeta avval "Samarqand", bir necha soni chiqqach esa 26-, 27- sonlaridan so'ng "Noviy Samarkand" nomi bilan chiqdi. Bu vaqtinchalik o'zgarish gazetadan axborot olishda har- xillikka olib keldi. 28- sonidan boshlab esa u yana o'z nomiga qaytdi".

Bu haqda Behbudiyning o'zi ham gazetaning 45- sonida bosilgan maqolasida shunday deydi: "Samarqand"ning noshiri va muharriri o'zining besh oylik xizmatini millatiga ojizona hadya etib, hisob va daftar, oqchani shirkat ixtiyorina topshirar va shirkat istasa boshqa ism u ila-da jarida va majalla chiqara bilur. Xulosa, yangidan barpo bo'laturg'on shirkatni amrig'a millatning 1000 so'm puli ila "Samarqand"ning

²⁰Karimov I.A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Manaviyat,2008.- 4 b.

²¹Ziyo Said. Tanlangan asarlar. 1974. 42-43-betlar.

noshiri va muharriri ham, "Samarqand", "Yangi Samarqand", "Oyina" muhayyodur. Jarida chiqarilganda haftada uch bo'lmag'on suratda rivoji bo'lmas".

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat kutubxonasining "Nodir nashrlar" bo'limida "Samarqand" gazetasi taxlamlari ichida "Yangi Samarqand" gazetasining 2ta soni ham bor rus tilida.

Demak, 1-arizada gazetani ikki tilda (o'zbekcha va tojikcha), keyingi arizada rus tilida ham chiqarish ko'rsatilgan. Ehtimolki, rus tilida ham chiqarish tavsiya etilgan. Xullas, "Samarqand" gazetasi uchta tilda o'zbekcha, forsha va rus tillarida chiqib turgan.

"Samarqand" gazetasi o'sha davrdagi yurtimiz hayoti haqida xabar beribgina qolmay, xorijiy mamlakatlar hayotiga doir xabarlarni ham bosib chiqargan. Masalan, Ovro'pa va AQSHda nashr etiladigan gazeta va ularning o'quvchilari haqida ham yaxshigina xabarlar beradi. Misol uchun: gazetaning 27-sonida yozadi: "AQSHda kundalik gazetalarning soni 2472ta, haftalik gazetalar 16296ta, o'n besh kunlik va oylik jurnallar 276 ta chop etiladi. Bulardan 200 kundalik gazeta borki, bularning mushtariysi 10 million kishidir, besh jurnal borki, besh million mushtariyga ega".

Behbudiy muharrirlik faoliyatining diqqatga sazovor tomoni yana shundaki, u gazeta-jurnalda biron-bir nashrdan ko'chirib yo tarjima qilib material bersa, uning ostida albatga "Idora" yoki "Samarqand" imzosi bilan o'sha material, maqola, sharhga izoh beradi. Masalan, yuqorida keltirilgan AQSH matbuoti haqidagi maqoladan so'ng Behbudiy yozadi: "70 million Amerika xalqi 22882 jarida va majalla o'qiydi, biz Turkiston nufusi onlardan 8 barobar oz bo'lsa-da, ilm borasida 3000 daf'a ozdurmiz. Biz dunyo ahlidan biz Turkistonlilar beilm va yaxshiydurmiz"²².

Behbudiyning "Samarqand" gazetasi boshqa nashrlarga qaraganda "o'troq fikrlarni", ya'ni mahalliy mavzudagi muammolarni ochiqroq tarzda maydonga tashlaydi, mahalliy savdogarlarni "Tijorat ilmini bilmaganlikda yoki bilsa ham juda

²² Abduazizova. N. Turkiston matbuoti tarixi. Toshkent.: "Akademiya" 2000 yil.- 98b.

yaxshi bilmaslikda" ayblaydi, rus maktablarida o'qiganlarni "millat g'amini yemaysiz" deb tanqid qiladi.

“Oyina ”jurnali 1913-yil 20-avgustdan chiqa boshlagan, uning muharriri o'zbek milliy matbuotida jurnalchilikka asos slogan noshir Mahmudxo'ja Behbudiydir. O'zbek milliy matbuotida jurnalchilikka asos solgan noshir va muharrir Mahmudxo'ja Behbudiydir. Uning "Oyina" jurnali nafaqat Turkistonda, shuningdek Rossiyaning musulmonlar yashaydigan boshqa o'lkalarida xam mashxur bo'lgan. Mahmudxo'ja Behbudiy tashabbusi bilan ma'rifatparvarlarning ilk jurnali "Oyina" 1913 yilning 20 avgustidan chiqa boshladi. U o'zining balandsaviyasi, dolzarbligi, mavzu rang-barangligi bilan tez orada mahalliy ziyolilar orasida katta obro' qozondi²³.

Mustabid chor xukumati siyosatini targ'ib qiladigan "Turkiston viloyatining gazeti" xam "Oyina" jurnaliga turli yo'llar bilan xalaqit berib kelgan. Behbudiy vaOstroumovning "sart" so'zi borasidagi mashxur bahsi xam mana shu ikki nashrda bosilgan.

Yurtimizda Mustaqillik tufayli "Oyina" jurnali faoliyati tarixchi, filolog, jurnalistlarning ilmiy ijodiy faoliyatlarida katta qiziqish uyg'ota oldi. Ayniqsa, Axmad Aliyev, Naim Karimov, Dilorom Alimova, Dilbar Rashidova, Sirojiddin Axmedov, Sherali Turdiyev Halim Sayid, Normurod Avazov, Zebo Ahrorovalar bu borada katta izlanishlar olib bordilar.

Endilikda istiqlol sharofati bilan hatto xalqaro anjumanlarda ham jadidchilikning istiqlolchilik harakati tarixini o'rganish tamomila yangi bosqichga ko'tarildi. Bu xayrli bosqich tufayli yirik tadqiqot ishlari maydonga kelmoqda.

Shuningdek, buni "Samarqand" gazetasi va "Oyina" nomli jurnal to'g'risidagi eng so'nggi ma'lumotlar O'zbekistonning yangi tarixi markazi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti tomonidan chop etilgan "Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash" da ham ko'rish mumkin.

²³ Abduazizova. N. Turkiston matbuoti tarixi. Toshkent.: "Akademiya" 2000 yil.- 190 b.

Jurnalning nomlanishi muqovada - arab, o'zbek, fors va rus tilida yozilganligini ko'rish mumkin, ya'ni "Mir'ot", "Ko'zgu", "Oyina" va "Zerkalo".

Behbudiy Samarqand viloyat harbiy gubernatoriga yozgan arzida jurnalni uch - o'zbek, tojik va rus tillarida chiqarishga izn so'ragan.

Jurnalda ruscha maqola va xabarlar o'rniga faqatgina e'lonlar kuzatish mumkin. Aftidan, ruschani xam qo'shganligi Behbudiyning arzi ijobiy hal bo'lishida asosiy omillardan biri bo'lgan. Qolaversa, "Samarqand" gazetasi, "Oyina" jurnali "Russkaya periodicheskaya pechat v Turkestane 1870-1917" (Tashkent, 1960) risolasiga bekorga kiritilmagan.

Jurnalistika tarixi va bugungi kun faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, har qanday davrda gazetaning mazmun-mohiyati bevosita uning iqtisodi bilan ham bog'liqligini ko'ramiz. O'sha zamon mafkurasi, davr ruhi ufurib turgan matbuot, albatta, kimgadir xizmat qilgani yoki kimningdir mablag'i evaziga chiqqani tabiiy jarayon. O'zbek matbuoti tarixi ham shuni e'tirof etmoqdaki, zamonning zo'ri yoki ziyolisi nashr orqali o'z maqsad va istaklarini amalga oshirgan.

Milliy matbuotning shakllanishida jadidlar harakati muhim rol o'ynadi. Chunonchi, Turkistonda 1906 yil iyunida jadidlar tomonidan "Taraqqiy" gazetasi chiqarila boshlandi. 1907 yil 1 dekabridan Toshkentda A.Avloniy muharrirligida "Shuhrat" gazetasi chiqa boshladi. 1912 yilda Buxoroda "Buxoroi sharif" gazetasi tashkil topdi, 1913 yilda Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy muharrirligida "Samarqand" gazetasi chiqa boshladi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, regional matbuotning tarixiy bosqichlarini o'rganish jarayonidajadidlar davri matbuoti eng muhim o'rinni egallaydi. Xususan, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Ismoil Obidiy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi vatanparvar, millatparvar insonlarning bu boradagi qilgan sa'y-harakatlari ham o'rnak, ham andozadir. Matbuot endigina tashkil topganiga qaramay, obuna, reklama va e'lonlarga e'tibor qaratilgani, o'ziga xos boshqaruvchilik, gazetaning iqtisodiy asosi o'sha davrlardan shakllana boshlaganligidan dalolat beradi.

1.2 O'zbekistondagi hududiy nashrlar tavsifi, shakli, mazmuni, mavzu doirasi

Bugungi kunda mamlakatimizda markaziy nashrlar bilan bir qatorda hududiy nashrlarning ham salmoq va imkoniyat darajasi kengayib bormoqda. Yurtimizning har bir viloyatlarida, shaharlarida, qishloqlaridagi ma'naviy, ma'rifiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy sohada yuz berayotgan yangiliklardan xalqimizni xabardor etishda hududiy nashrlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy hududiy nashrlarimizda ham erkin ijod uchun, milliy qadriyatlar va boy ma'naviyatni, millat tarixini, uning bugungi sermazmun hayotini to'laqonli va haqqoniy aks ettirish uchun zarur shart sharoitlar yaratilgan.

Ijtimoiy sohaning turli yo'nalishlarida o'z iste'dod va ijodini namoyon etayotgan jurnalistlar bugungi kun zamonaviy hududiy nashrlarining zamon talablariga mos ravishda taraqqiy topishiga xizmat qilmoqda. Shunisi e'tiborga molikki, hududiy nashrlarda tahliliy-tanqidiy maqolalarning ko'plab e'lon qilinayotganligi ham diqqatga sazovordir. Buning sababi viloyat va tumanlardagi mavjud muammolar ushbu nashrlarga ko'proq va yaxshiroq tanish ekanligida, albatta.

Hududiy nashrlar qayerda o'z faoliyatini yuritsa, o'sha yerning siyosiy-iqtisodiy holatini, rangini, shakli-shamoyilini o'zida aks ettiradi. Hududiy nashrlar ijtimoiy nazorat tizimini yoritadi, uning yordamida u alohida odamlar va jamoat o'rtasidagi aloqalarni yo'lga qo'yadi.

Bosma ommaviy axborot vositalari xoh u markazda bo'lsin, xoh turli viloyat hududida bo'lsin ijtimoiy institut sifatida hokimiyat va fuqarolar o'rtasida bog'lovchi bo'g'in sifatida xizmat qiladi. Bir tomondan, bosma nashr davlat hokimiyati organlari uchun fuqarolarga qonunlar, farmonlar, qarorlar ko'rinishidagi boshqaruv axborotini yetkazish uchun jamiyatni boshqarishning samarali vositasiga aylanadi. Ikkinchi tomondan, fuqarolar bosma ommaviy axborot vositalaridan hokimiyatga - turli darajadagi davlat organlariga o'z so'rovlari va talablarini, takliflari va ularning ishlari haqidagi fikrlarini yuborish, davlatning faoliyati ustidan jamoatchilikning nazoratini o'rnatish uchun foydalanadilar. Chunonchi, bosma ommaviy axborot vositalari davlat

tuzilmalarining omma uchun ochiqligini - ularning barcha harakatlari haqidagi axborotning erkinligini ta'minlaydi.

Zamonaviy hududiy nashrlar tizimida gazetalar, jurnallar, davriy nashrlar, haftaliklar muhim ahamiyat kasb etadi chunki, jamiyat tashkilotlari bilan xalqni bir-biriga chambarchas bog'lab turadigan vositalar ichida eng muhim hisoblanadi. Ma'lumki, O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari — jamiyatga ommaviy mavzularda tayyorlangan materiallarni uzatuvchi bosma nashrlar, radio, televideniye hamda Internet tizimidan iborat. Ommaviy Axborot Vositalarining ma'nosi keng qamrovli tushuncha bo'lib uning tarkibiga matbuot, radio, televideniye va Internetdan tashqari kino hamda boshqa ommaviy kommunikatsiya vositalari ham kirib ketadi. Bir so'z bilan aytganda, Ommaviy Axborot vositalari - matbuot (gazeta, jurnal), televideniye, radio kabilarning yig'indisidir"²⁴

Ommaviy Axborot Vositalariga bag'ishlangan tadqiqotlarning birida shun-day deyiladi: "Matbuot, so'z erkinligi, shaxsning shunchaki o'zini o'zi namoyon qilishigina emas, balki ijtimoiy hayotga, muhitga va yon-atrofga munosabatlarning ma'lum bir ifodasidir. Shu nuqtai nazardan ham OAVda bildirilgan fikr darrov keng tarqaladi, axloqiy, ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga oid qarashlar aks-sado beradi, kishilarni fikrlashga, bahslashishga, mavjud siyosiy hokimiyatni zarur chora-tadbirlar ko'rishga undaydi"²⁵. OAV sohasida huquqiy va axloqiy savodxonlikni oshirish har bir mamlakat uchun axborot asrida eng muhim vazifalardan biridir. Ommaviy Axborot vositalariga kata hajmli ko'p qisimli hodisa sifatida qaralsa, uning keng qamrovli ekanligini tushunish qiyin emas. Gazeta, jurnal, radio, televideniye va Internetning har biri yetarli darajada funkcionallikka ega. Bularning hammasi OAV - murakkab va sertarmoq tizim ekanligini ifodalaydi. Adadining ko'pligi va mohiyati jihatidan rang-barang bo'lganligi tufayli OAVning strukturaviy bo'linmalarini to'la tasniflashning iloji yo'q. Buning isboti uchun gazetalarni misol qilish mumkin.

²⁴ Mo'minov, F.A. Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida - T.: Univeritet, 1993. 4-5-betlar.

²⁵ O'zbekistonda demokratik fuqarolik jamiyati qurish asoslari. Ma'ruzalar kursi / SH.O.

Mamadaliyev, D.A. Yusupov, M.T. Tojiboyev, mas'ul muharrir O. Mamadaliyev – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008 231-6

Gazetalar, asosan, xalqaro va ichki, siyosiy va iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy, ilmiy va sport, bolalar, yoshlar, ayollar, zavod, fabrika, uyushma, birlashma, tuman, shahar, viloyat nashrlari kabi turlarga bo'linadi. Respublika gazetolari bir institutdek tuyulsada, lekin mahalliy hamda hududiy nashrlar boshqa institutni tashkil etadi, demak, shunday ekan mahalliy hamda hududiy nashrlarning faoliyatidam OAV tizimida muhim sanaladi.

Muhtaram Prezidentimiz bundan 3 yil oldin aytganlaridek, “Mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik jamoatchilik fikrining holatiga yetarli darajada bog'liq bo'lib, uning shakllanishida ommaviy axborot vositalariga muhim o'rin beriladi. Bugungi kunda O'zbekiston ommaviy axborot vositalarining faoliyatini tubdan isloh qilish zarurligi borgan sari ayon bo'lmoqda”²⁶

Malumki, Respublikamiz prezidenti tashabbusi bilan 1993- yildan buyon 27 iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni sifatida keng nishonlanib kelinadi. Bayram munosabati bilan davlat rahbari o'z tabrigida milliy jurnalistikaning bugungi holati, bu borada erishilayotgan muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda galdagi vazifalarga ham alohida e'tibor qaratadi. Bundan bir necha yil avvalgi ya'ni 2009-yilda yo'llangan prezident tabrigida shunday deyilgan: “O'zbekistonimizni yanada ravnaq toptirish uchun, yurtimiz kundan-kunga qanday katta yutuq va marralarni qo'lga kiritayotgan bo'lsa, ommaviy axborot vositalari sohasida ham g'oyat muhim yangilanish va rivojlanish jarayoni yuz berayotganini, matbuotning hayot bilan hamnafas bo'layotganini mushtariylar, jamoatchiligimiz chuqur his etmoqda va ana shu o'zgarishlarning amaliy samarasiga guvoh bo'lmoqda”²⁷ Tabrik xatida alohida ta'kidlanganidek, agar bundan o'n besh yil oldin respublikada 475 ta ommaviy axborot vositasi bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda bu raqam 1110 tani tashkil etmoqda. Xususan, ularning 600 dan ziyodi viloyatlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, mavjud 90 ta nashriyot, 1300 dan ortiq matbaa korxonasi moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, mahsulot sifati yuksalib boraётgani ta'kidlanadi. Zero, jamiyat

²⁶ Karimov.I.A.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent.: O'zbekiston, 1997.-114 b.

²⁷Karimov I.A. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. //Xalq so'zi, 2009 yil 27 iyun.

ma'naviyatini muttasil yuksaltirib borishda OAV juda keng imkoniyatlarga egadir. Milliy jurnalistikaning kelgusidagi asosiy vazifalaridan biri ham ana shu imkoniyatlarni to'liq ishga solishdir.

Matbuot davriy gazeta va jurnallar, axborotnomalar, byulletenlardan iborat. Respublikamizda gazetalar turli (siyosiy va ixtisoslashgan) yo'nalishlar bo'yicha chop etiladi. Gazetalar ichida siyosiy nashrlar alohida o'rin tutadi. Masalan, "Xalq so'zi", "Narodnoye slovo", "Pravda Vostoka", "Nurli yol", "Ovozi tojik".

O'zbekiston hamda mamlakatimiz viloyatlari miqyosida faoliyat yuritadigan xar bir siyosiy partiyalar markazda ham, turli viloyat hududlarida ham o'z bosma nashrlariga ega. O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining "Adolat", O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining "Milliy tiklanish", Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining "XXI asr" gazetolari, O'zbekiston xalqdemokratik partiyasining "O'zbekiston ovozi" va "Golos Uzbekistana" gazetolari shular jumlasidandir.

Tarmoqlar nashrlariga kelsak, bunday gazetalar Respublikamizda ko'p "Ma'rifat" va "Uchitel Uzbekistana" gazetolari O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklariga qarashli. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Sport" gazetalarining ta'sischisi Madaniyat va sport ishlari vazirligidir. Mudofaa vazirligi "Vatanpar-var", Ichki ishlar vazirligi "Postda", "Ishonch" O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi, Soliq va Bojxona qo'mitalari birlashtirilgan "Soliq va bojxona xabarleri" gazetalariga ega. Sport nashrlarining o'zi qator gazetalardan iborat: "Sport", "Futbol", "Futbol-ekspres" va boshqalar.

Respublikamizning turli viloyatlarida faoliyat olib borayotgan Ommaviy Axborot Vositalari safida mustaqil OAVning soni ko'p sonda. Bugungi kundamamlakatimizdagi 1300 dan ortiq matbuot nashrlarining yarmidan ko'pi mustaqil nashrlardir²⁸.

²⁸ O'zbekiston matbuot va axborot agentligining rasmiy sayti: <http://www.api.uz/uz/content/statistics>

Mustaqil nashrlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular muayyan davlat tashkiloti nashri emas, shusababli ularning obunasini hokimiyatlar tashkil etmaydi. Gazetani esa mushtariylar sotib olishi kerak, aks holda u o'zini moddiy jihatdan ta'minlay olmaydi. Shuning uchun mustaqil gazetalar ichida ko'ngilochar nashrlar ko'paymoqda. Hududiy nashrlar faoliyatida bunday gazetalar sonini juda ko'plab uchratishimiz mumkin gazetalarini kiritish mumkin. Odatda, ko'ngilochar nashrlarning siyosiy va ma'naviy mazmuni uncha yuqori bo'lmaydi, zero, chop etilayotgan materiallarning asosiy qismi shov-shuvdan iborat. Ammo ommaviy auditoriya shunday materiallarga ko'proq qiziqqani bois, bu nashrlarning adadi, hatto O'zbekistonda birinchi gazeta hisoblanuvchi "Xalq so'zi" gazetasidan ham ko'p.

Hududiy nashrlarimiz faoliyatida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy mazmundagi gazetalar ham juda ko'pdir. Masalan birgina, Farg'ona viloyatida "Farg'ona haqiqati", "Farg'ona tongi", "Dang'ara", "Marg'ilon haqiqati", "Qo'qon sadosi", "Do'stlik bayrog'i", "Quva tongi", "Davr ovozi", "Xalq ovozi", "Vodiy yog'dusi", "Markaziy Farg'ona", "Farg'ona shifokori", "Davr minbari", "Hamroh", "Axborot", "To'qimachi", "Yer va el", "Karvon", "Ma'naviyat", "Kimyogar", "Ustoz" kabi qirqdan ortiq gazetalar mavjud bo'lib, ularda asosan viloyat va tuman hokimliklariga, davlat boshqaruv idoralariga, xotin-qizlar qo'mitasiga, ta'lim markazlariga doir ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy mazmundagi maqolalar chop etiladi²⁹. Andijon hamda Namangan viloyatlarida ham qirqqa yaqin ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy mazmundagi gazetalar chop etiladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, markaziy nashrlarda faoliyat olib borayotgan jurnalistlar bilan bir qatorda hududiy nashrlarning gazeta ijodkorlari ham yurtimiz istiqlolini mustahkamlash, iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish, xalqimizning boy tarixi va ma'naviyatini tiklash hamda rivojlantirish sohasida faol ishtirok etib kelmoqdalar. Barcha viloyatlarda faoliyat yuritayotgan hududiy nashrlar bosh muharrirlari boshchiligidagi tahririyatlar viloyatlardagi yangilik va o'zgarishlarni, xalq xo'jaligini barqaror rivojlantirish, xalqning turmush darajasini

²⁹ Farg'ona hokimligining rasmiy veb-sayti www.ferghana.uz.

yaxshilash, mustaqillik ne'matlari va imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, Prezident farmonlari, hukumat qarorlarining izchil amalga oshirilishini ta'minlashda, viloyatlarning sanoat, qurilish, paxtachilik, g'allachilik pillachilik va boshqa sohalaridagi shon-shuhratlarini oshirishda viloyatlar hokimliklarining ishonchli yordamchisi bo'lmoqdalar.

Bugungi kunda matn terish, gazetani sahifalash, chop etishga tayyorlash singari murakkab jarayonlar ko'pchilik tahririyatlarning o'zida yosh mutaxassislar tomonidan muvafaqqiyatli amalga oshirilmoqda. Tahririyatlar kompyuterlari internet tarmog'iga ulangan, hududlardagi gazetalarning ko'pchiligi o'z veb-saytlariga ega. Gazetalarning yangi sonlari veb-sayt tarmog'ida ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi homiyligida internet orqali butun dunyoga tarqatilmoqda.

1.3 Zamonaviy hududiy nashrlar faoliyatidagi muammolar

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin har bir sohada bo'lgani kabi jurnalistika sohasida ham o'ziga xos yutuqli o'zgarishlar amalga oshirildi. Yildan – yilga ommaviy axborot vositalariga, zamonaviy hududiy nashrlarga talab va takliflar ortib bormoqda. Lekin shunga qaramay, Ommaviy Axborot Vositalari tizimida, xususan hududiy nashrlarimiz faoliyatida ham ayrim kamchilik va muammolarga duch kelamiz. Masalan, viloyatlarimizda chop etilayotgan ko'plab mustaqil gazetalarda, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy mazmundagi gazetalarimizda, imlo xatolarini ko'plab uchratishimiz mumkin. Achinarlisi shundaki, imlo xatolar gazetaning birinchi sahifasidayoq yoki bo'lmasam, gazetada bosilgan maqolaning sarlavhasidayoq ko'zga ko'rinadi.

Yana bir misol, viloyatlarimizda faoliyat olib borayotgan ayrim mustaqil gazetalarning ko'ngilochar dasturlarida, badiiy adabiyot, she'riyat ruknlarida faqatgina yosh, havaskor yozuvchi va shoirlarning ijod namunalarini ko'plab uchratamiz, to'g'ri yoshlarga keng imkoniyat eshiklarini ochish yaxshi albatta, lekin

o'zbek milliy adabiyotimiz hazinasida kishilarni yuksak ma'naviyatga, komil inson darajasiga yetaklovchi minglab bebaho, nodir asarlarimiz, she'riyatimiz bor. Anashunday nodir asarlarimizni, ming yillar davomida sayqal topgan va shakllangan adabiyotimizni hududiy nashrlarimiz ona xalqimizga yetkazsa, va xalqimiz bunday boy madaniy merosimizdan bahramand bo'lsa, xalqimizning vatanga muhabbat, sadoqat, mehr-muruvat, ezgulik, bag'rikenglik kabi kabi insoniy fazilatlarini yanada orttirishda muhim omil bo'lar edi.

Yana bir kamchilik, hududiy nashrlarimizda joylarda aholini o'ylantirayotgan muammo, kamchiliklar va dolzarb masalalarga bag'ishlab yozilgan maqolalarga javoban, tegishli mutassaddi tashkilotlar tomonidan ko'p hollarda kamchilik va muammolarni hal etishga qaratilgan zaruriy chora tadbirlar ko'rilmaydi. Zero, Davlatimiz rahbari "odatda OAVda ko'pchilikni o'ylantirayotgan dolzarb mavzular ko'tariladi, lekin davlat va hokimiyat vazifalarida o'tirganlar, jamoatchilik vakillari tomonidan yetarlicha ahamiyat berilmasligi tufayli ular ko'pincha e'tibordan chetda qolib ketadi. Bunday holat, masalaga panja orasidan qarash, avvalo, shu maqola va ko'rsatuvni yuragidan o'tkazib, katta mehnat bilan tayyorlagan jurnalist va mualliflarning ijodiy izlanishlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, qo'lini ishdan sovutib qo'yadi. Eng yomoni, bu chiqishlarda ko'tarilgan masala va muammolar bunday beparvolik natijasida eski holida, o'zgarmasdan qolishi iqtisodiyotimiz va hayotimizga katta zarar yetkazishi muqarrar"³⁰, - deya ta'kidlagan edilar.

Zamonaviy hududiy nashrlar faoliyatida uchrab turadigan bunday ayrim kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan chora tadbirlar barcha viloyatlarimiz miqyosida amalga oshirilmoqda, albatta. Buning natijasi o'laroq, quydagi ma'lumotlarni misol qilib keltirishimiz mumkin: 2015- yil birinchi yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda 1395 ta Ommaviy Axborot vositalari ro'yxatga olingan bo'lib, ulardan 987 tasi bosma ommaviy axborot vositalari ya'ni 689 ta gazeta, 283 ta jurnal, 15 ta axborotnoma. 100 tasi elektron ommaviy axborot vositalari ya'ni, 66 ta telekanal, 34 ta radiokanal. 4 ta axborot agentligi va 304 ta axborot- vebsaytlaridir³¹.

³⁰

³¹ Fuqarolik jamiyati shakillanishini monitoring qilish mustaqil instituti rasmiy sayti: www.nimfogo.uz

Telekanallar va vebsaytlarning 63% nodavlat ommaviy axborot vositalari sanaladi. Ommaviy axborot vositalari O'zbekistonda yashaydigan millat va elatlarning 15 ta tilida faoliyat olib boradi. Gazetalarning 259 nafari ya'ni jami gazetalarning 26% bosh muharrirlarini ayollar tashkil etadi. 90% holatlarda davlat organlari milliy OAVning tanqidiy materiallariga munosabat bildirishadi³².

Ma'lumki, ommaviy axborot vositalari fuqarolarning siyosiy faolligini va kayfiyatini ifoda etib, fikrlar rang-barangligi asosida ijtimoiy fikrni shakllantiradigan, umuman, davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan o'ziga xos institut hisoblanadi. Mamlakat hayotining dolzarb masalalarini keng muhokama etish, mavjud muammolarga samarali yechim izlash va davlat hokimiyati hamda boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish kabi vazifalarni bajarishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Istiqlol yillarida yurtimizda ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi va ular yangicha mazmun, yangicha shakl kasb etib, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda zamonaviy talablarga javob beradigan muloqot minbariga aylandi.

Amalga oshirilayotgan keng qamrovli sa'y-harakatlar samarasi o'laroq, bugungi kunda ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi faolligi va roli tobora ortib borayotganini e'tirof etish joiz.

Bundan tashqari, 2014 yilda Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti tomonidan bosma nashrlarda chop etilayotgan tahliliy va tanqidiy materiallar bo'yicha olib borilgan o'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, joylarda aholini o'ylantirayotgan muammolarni aniqlash va ularni hal qilish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda «to'rtinchi hokimiyat»ning roli tobora ortib borayotganidan dalolat bermoqda.

Binobarin, o'tgan yil mobaynida 374 gazetani (154 tuman, 84 shahar, 98 viloyat va 38 respublika) o'rganish natijalariga ko'ra, tahliliy-tanqidiy materiallar soni avvalgi yillarga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Agar 2013 yilda milliy matbuotda

³² O'sha manbaa.

2 ming 159 ta ahamiyatga molik tanqidiy va tahliliy material chop etilgan bo'lsa, 2014 yilda ushbu ko'rsatkich 2 ming 452 tani tashkil etdi, ularning 1003 tasi tanqidiy materiallardir³³.

Ushbu materiallarning 20 foizi bevosita axolining murojaatlari asosida tayyorlangani ommaviy axborot vositalari fuqarolarning tobora erkin minbariga, jamoatchilik nazorati o'rnatishning samarali vositasiga aylanib borayotganiga yorqin misoldir.

Davlatimiz mustaqillikka erishganidan keyin OAV-ning erkin rivojlanishini ta'minlash uchun muhim ishlar amalga oshirildi. Bugungi bosqich uchun yetarli huquqiy va me'yoriy asos yaratildi. Misol uchun bir qator qonunlarni misol keltirish mumkin. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Axborot olish erkinligi kafolatlari to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida", "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida", "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida", "Reklama to'g'risida", "Axborotlashtirish to'g'risida". Shu bilaya birga, bir qator O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari ham e'lon qilindi.

Ma'lumki, mustaqillikdan keyin OAV soni ortishi bilan bir qatorda ularning iqtisodiy asoslari ham jiddiy o'zgardi. Yangi bosma nashrlar paydo bo'ldi va ular kundan-kunga ommalashib bormoqda. "Xalq so'zi", "Narodnoye slovo", "Hurriyat", "Biznes-vestnik Vastoka" kabi nashrlar mamlakatda eng ko'p o'qiladigan nashrlar sirasiga kiradi. "To'rtinchi hokimiyat" mustahkamlanishi bilan milliy axborot maydonida mustaqil nashr, radio va telestudiyalar ta'sirida raqobat muhiti yildan-yilga kuchayib bormoqda.

« Ommaviy axborot vositalari to'g'risida »gi Qonunga muvofiq OAV: matbuot, radio, televideniye, Internet, axborotnomalar, byulletenlar, video, Hujjatli filmlarga bo'linadi³⁴.

³³ Fuqarolik jamiyati shakillanishini monitoring qilish mustaqil instituti rasmiy sayti: www.nimfogo.uz

³⁴ O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni. Ommaviy axborot vositalari faoliyati sohasidagi me'yoriy huquqiy hujjatlar to'plami. – T.: 2009.

OAV sohasiga tegishli me'yorlarni barcha OAV xodimlari bilishlari shart. Bunga yuqorida tilga olingan qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlaridan tashqari, OAV faoliyatini tartibga soluvchi kodekslarni ham kiritish mumkin.

OAVga bag'ishlangan tadqiqotlarning birida shunday deyiladi: "Matbuot, so'z erkinligi shaxsning shunchaki o'zini o'zi namoyon qilishigina emas, balki ijtimoiy hayotga, muhitga va yon-atrofga munosabatlarning ma'lum bir ifodasidir. Shu nuqtai nazardan ham OAV-da bildirilgan fikr darrov keng tarqaladi, axloqiy, ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga oid qarashlar aks-sado beradi, kishilarni fikrlashga, bahslashmshga, mavjud siyosiy hokimiyatni zarur chora-tadbirlar ko'rishga undaydi"⁷. OAV sohasida huquqiy va axloqiy savodxonlikni oshirish - har bir mamlakat uchun axborot asrida eng muhim vazifalardan biridir.

Xullas, mamlakatimizda mustaqillikdan keyin OAV sohasida ham son, ham sifat jihatdan sezilarli darajada o'zgarishlar bo'ldi va bo'lmoqda. Sohani rivojlantirish uchun huquqiy asos yaratildi.

II. BOB. HUDUDIY NASHRLARDA JANRLAR XILMA-XILLIGI VA JURNALIST MAHORATI.

2.1. Hududiy nashrlarda informatsion janrlar tahlili : tezkorlik va holislik

Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha jabhalarida bo'lgani singari ommaviy axborot vositalariga nisbatan ham yangicha munosabat shakllandi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, faol demokratik yangilanishlar, mamlakatda jadallik bilan yuz berayotgan modernizatsiyalash jarayoni hamda yaratuvchanlik holati fikr va so'z erkinligi, rang-barangligi hosilasi sifatida o'zini namoyon etmoqda. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari yoshlar qalbi va ongiga mustaqillik g'oyasini singdirishda katta xizmat qilmoqda. OAVning barcha jabhalarida boqiy madaniy merosimiz, milliy mafkura va bunyodkor xalqimizning boy ma'naviy qadriyatlari keng targ'ib qilinmoqda, tarix falsafasi orqali uning saboqlari va bugungi kun voqealari hamda dolzarb mavzulari yoritilmoqda. Shu tariqa, ommaviy axborot vositalari insonning o'zini-o'zi idrok etishiga, o'zligini anglashiga, hayotning ma'no va mohiyati nimalardan iborat ekanligini teran anglashiga yordam bermoqda.

Ma'lumki, hududiy nashrlar fuqarolarning siyosiy faolligini va kayfiyatini ifoda etib, fikrlar rang-barangligi asosida ijtimoiy fikrni shakllantiradigan, umuman, davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan o'ziga xos institutning bir bo'lagi hisoblanadi. Mamlakat hayotining dolzarb masalalarini keng muhokama etish, mavjud muammolarga samarali yechim izlash va davlat hokimiyati hamda boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish kabi vazifalarni bajarishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda zamonaviy hududiy nashrlarimiz xilma-xil va rang-barang janrlar, hususan tezkorlik va holislik asosida faoliyat yuritib kelmoqda. Har bir gazetxon, tinglovchi yoki tomoshabin o'zlari o'qimoqchi bo'lgan yangilik yoki xabarning xolis va haqqoniy yoritilishini xohlashadi va jurnalistlardan shuni kutishadi. Bugungi kunda jurnalistik ta'limda jurnalistlarning axborot materialini yozishda xolislik mezonlariga amal qilishi zarurligi asosiy axloqiy talablardan biriga

aylangan. Biroq har bir so'zni o'z o'rnida qo'llash va xolislik orqali samaradorlikka erishishda bu borada to'plangan nazariy bilimlarni sinab ko'rish va xolislik mezonlariga amal qilishni qat'iy ko'nikmaga aylantirish yaxshi natijalarga olib keladi. Axborotda xolislikni ta'minlash uchun jurnalist dalillar yig'ish, ularni saralash va muayyan ketma-ketlik asosida tartibga solish, asar mazmuni va strukturasi tuzib chiqish va bayon qilish kabi barcha bosqichda amal qilishi zarur bo'lgan bir qator talablar bor. Oddiygina dalillar yig'ishdagi sustkashlik yoki asarda faqat bir axborot manbai ma'lumotlari bilan cheklanib qolish, tarfakashlikka olib keladi. Demak, jurnalist materialining ta'sirchanligi va dalillarga boyligini ta'minlashda kuzatuvchanlikning roli yuqori ekan.

Har jihatdan xolis maqola yozish esa jurnalistdan o'z ustida tinimsiz ishlashni talab qiladi. Ozgina bo'lsa ham, hissiyotga berilish yoki shov-shuvning ketidan quvish jurnalist uchun zararli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Umuman olganda, xolislik tamoyili boshqa axloqiy tamoyillar, jumladan, haqqoniylik, adolatlilik, oshkoralik singari me'yorlar qatorida, jurnalistning jamiyat va kasbi oldidagi burchlarini to'laqonli uddalashiga muhim asos bo'ladigan axloqiy talabdir. Chunki axborot yozishga kirishgan jurnalistning mavzu tanlashidan tortib, faktlarni yig'ish va tahlil etish, hammasidan ham mushkuli – faktlarga haqqoniy va xolis baho berish jarayonlarining barchasida kasbiy axloq tamoyillari jurnalistga eng to'g'ri qarorlar qabul qilishda yordamga keladi, ularni turli ijodiy muvaffaqiyatsizlik va ko'ngilsizliklardan asraydi³⁵. Buning uchun jurnalistlar o'z ustlarida tinimsiz ishlashi va izlanishi talab etiladi.

Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlaganlaridek: “Ayni vaqtda matbuot va efir orqali haqiqatni yoritish, odamlarga yetkazish har qaysi jurnalistning bilim va tajribasi, uning professional mahoratiga, grajdanlik pozitsiyasiga bog'liq ekanini ham unutmashimiz lozim”³⁶

Zamonaviy hududiy nashrlar ham OAVning bir bo'lagi sifatida hududlardagi

³⁵ Elektron ommaviy axborot vositalarida ma'naviy masalalarning yoritilishi: nazariya va amaliyot. Ilmiy maqolalar to'plami. Toshkent 2012, 68 b.

³⁶ I.A. Karimov. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O'zbekiston, 2009. 10-b.

axborot-informatsiyalarni tezkorlik va holislik bilan xalqqa yetkazib berishda muhim vosita sanaladi. Shu yilning 29-martida mamlakatimizda muhim siyosiy jarayon O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov jarayonlari bo'lib o'tdi. Ushbu siyosiy jarayonni yoritib berishda viloyatlarimizdagi barcha hududiy nashrlarning infarmatsion bo'limlari holislik va haqqoniylik tamoyillariga asoslangan holda, tezkorlik bilan axborotlarni xalqimizga yetkazib berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, Farg'ona viloyatining "Farg'ona haqiqati", "Farg'ona tongi", "Margilon haqiqati" gazetalarida. Samarqand viloyatining "Samarqand", "Zarafshon", "Samarkandskiy vestnik", "Ovozi Samarqand" gazetalarida Sirdaryo viloyatining "Sirdaryo haqiqati", "Sirdaryo", "Adolat ko'zgusi" gazetalarida, Qashqadaryo viloyatining "Qashqadaryo", "Istiqlol", vkh boshqa ko'plabviloyat gazetalarida asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar saylovoldi tashviqoti doirasida mamlakatimiz hududlarida saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazganligi yoritildi.

Hududiy nashrlarimiz bilan bir qatorda markaziy nashrlarimizda ham bu mavzu keng yoritib borildi. Misol uchun,2015 yil 3 mart kuni chop etilgan "Xalq so'zi", "Narodnoye slovo", "Pravda Vostoka" gazetalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarning – O'zLiDePdan Islom Karimovning Samarqand viloyatidagi, "Adolat" SDPdan Narimon Umarovning Andijon viloyatidagi saylovchilar bilan uchrashuvlari tafsilotlari e'lon qilindi. Bundan tashqari, O'zXDPning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovidagi ishtiroki munosabati bilan partiya tashkilotlarining tashkiliy va siyosiy vazifalari yuzasidan Xotamjon Ketmonovning O'zbekiston XDP IX qurultoyida qilgan ma'ruzasi chop etildi.2015 yil 4 mart kuni chop etilgan "Xalq so'zi", "Narodnoye slovo", "Pravda Vostoka" gazetalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarning – O'zXDPdan Hotamjon Ketmonovning Sirdaryo viloyatidagi saylovchilar bilan uchrashuvi tafsilotlari e'lon qilindi. Bundan tashqari, O'zbekiston Prezidentligiga O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod Akmal Saidovning partiyaning IV s'ezdida qilgan ma'ruzasi chop etildi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov 2012- yil matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga kasb bayrami munosabati bilan yo'llagan tabrigida soha xodimlari oldida turgan muhim vazifalarga to'xtalar ekan, hayot voqeligini haqqoniy va xolis aks ettirishda jurnalist o'zini ayamadan, o'z ustida tinimsiz ishlashi, kasbiga sadoqatli bo'lishi, o'z hayotiy prinsiplaridan qaytmasdan, vijdon amri bilan yashashi lozimligini ta'kidlagan edi³⁷.

Prezidentimiz o'z tabrigida matbuot so'zining ta'sirchanligini oshirish, eng muhim chiqishlarga jamoatchilik e'tiborini qaratish uchun birinchi navbatda samarali faoliyat ko'rsatadigan aniq tizim tashkil qilish, bu borada O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi har chorak yakuni bo'yicha ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan eng dolzarb, eng o'tkir materiallarni alohida qayd etib, baholab, bu haqda matbuotda axborot berib borishini taklif etdi. Bunda, ayniqsa, tahliliy va tanqidiy chiqishlarga alohida ahamiyat berish, bu bilan jurnalistlarning og'ir mehnatini e'tirof etish va qadrlash, ayni paytda bu materiallarda ko'tarilgan muammolarni hal etishga jamoatchilikning, birinchi navbatda, joylardagi davlat boshqaruvi idoralari va mutasaddi tashkilotlar rahbarlarining e'tiborini jalb qilish lozimligi ta'kidlandi.

Viloyatlarimizda faoliyat olib borayotgan hududiy nashrlarimiz ham haqqoniylik va holislik tamoyillariga amal qilgan holda axborotlarni tezkorlik bilan xalqqa yetkazib berishga harakat qilmoqda. Masalan Farg'ona viloyatining "Farg'ona haqiqati" gazetasining deyarli har bir sonida viloyat miqyosidagi axborotlar tezkorlik va haqqoniylik bilan xalqqa yetkaziladi. Masalan gazetaning "Ustuvor vazifalar ijrosi" maqolasida Marg'ilon shahrida tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati-O'ziLiDeP viloyat kengashi hamda partyaning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi tomonidan Islom Karimovning O'zbekiston Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma nutqidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar ijrosini taminlashga bag'ishlangan seminar haqidagi axborotlar tezkorlik bilan nashr

³⁷Karimov I.A. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. //Xalq so'zi, 2012 yil 27 iyun.

etilgan³⁸.

Ommaviy axborot vositalari ijtimoiy fikrni shakllantirish va mustahkamlashda yetakchi o'rinda turar ekan, millat maqsad–intilishlarini jipslashtirish uning asosiy mohiyatiga evriladi. Kechayotgan jarayonlar borishini jadallashtirishda publitsistik muhokama qudratli vosita, unda oshkoralik va haqqoniylik, xolislik va munosabat, tasvir va muhokama jamlanadi. Zotan, faqat va faqat bahs-munozaralarda muammo adolatli yechim topadi. Ijtimoiy ongda hosil bo'ladigan bosim matbuotda yuzaga chiqadi.

2.2 Hududiy nashrlarda tahliliy janrlar va jurnalist mahorati

Keyingi vaqtda ommaviy axborot vositalari, ijod ahli mamlakatimiz hayotining turli sohalaridagi muammolarni yoritishga yanada mas'uliyat bilan yondashmoqda. Bunda asosan ikkita yo'nalish: yurtimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlar hamda jamiyat ma'naviy-madaniy hayotiga doir masalalarni milliy manfaatlar nuqtai nazaridan tahlil qilish, erishilgan yutuqlarni e'tirof etish bilan birga, mavjud muammolarga tahliliy, tanqidiy ko'z bilan qarash mas'uliyatining ortib borayotganini alohida ta'kidlash lozim.

2012-yilda O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi qoshida tajribali jurnalistlar va ekspertlardan iborat doimiy monitoring guruhi shakllantirildi³⁹. Guruh tomonidan mamlakatimiz gazeta va jurnallari, radio va telekanallarida e'lon qilingan eng dolzarb mavzulardagi tahliliy va tanqidiy chiqishlar atroflicha o'rganiladi.

Xususan, O'rta Osiyo mintaqasidagi transchegaraviy daryolarning suv resurslaridan oqilona foydalanish muammolari, mamlakatimizda aniq maqsadga yo'naltirilgan davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan transport-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq hududlarida namunaviy loyihalar asosida uy-joylar qurilishi, tabiiy gaz va ichimlik suv ta'minoti, savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi o'zgarishlar, shahar va qishloqlarda bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan birga, barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi, zamonaviy kasb-

³⁸“Farg’ona haqiqati” gazetasi. 2015-yil 29-aprel 34- soni.

³⁹ Jurnalistlar ijodiy uyushmasi rasmiy sayti: www.jurnalist.uz.

hunarga ega bo'lgan kollej bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash, sog'lom turmush tarzini ommalashtirish, yoshlar ma'naviy olamiga salbiy ta'sir etuvchi turli illatlarga qarshi kurashish, odam savdosi va giyohvandlik illatlari, erta nikohning salbiy oqibatlarini, mafkuraviy tahdidlar mohiyatini chuqur anglab yetishga qaratilgan targ'ibot masalalari shular jumlasidandir.

O'tgan 2013 yilda milliy matbuotimizdan tahliliy, tanqidiy materiallar ham keng o'rin oldi. Xususan, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi qoshidagi Monitoring guruhi tomonidan yil davomida mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan 2000 dan ortiq dolzarb mavzudagi tanqidiy-tahliliy materiallar o'rganib chiqildi va ular asosida har chorak yakunida "Hurriyat" gazetasida maqolalar chop etib kelindi. Muhimi, bu materiallarning aksariyati o'z samarasini berdi, hayotimizning qaysi bir sohasidagi muammolar o'z yechimini topdi, nuqsonlar bartaraf etildi.

Xususan, "Hurriyat" gazetasining o'tgan yil 1 may sonida "Jamoat transporti haqida jamoatchilik fikri" rukni ostida chop etilgan "To'xtang, "sakkiz yuz" va "Yo'lovchi va yo'l ovchilari", "Jamiyat" gazetasining 7 iyun sonidagi "Avtobuslar poygasi" sarlavhali tanqidiy maqolalarda jamoat transportlari belgilangan jadvalga amal qilmayotgani, haydovchilarning harakat vaqtida mobil aloqa vositasidan bemalol foydalanishi, yo'lovchilar taqdiriga mas'uliyatsizlik bilan qarab, tezlikni oshirib, bir-biriga ta'sir o'tkazishga urinayotgani haqida so'z yuritilgan edi⁴⁰. Maqolalar chop etilgandan so'ng soha mutasaddilari tomonidan shahardagi barcha yo'nalishlarda xizmat qilayotgan jamoat transportlariga tezlikni chegaralovchi maxsus belgilar qo'yildi. Haydovchi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar orasida tushuntirish ishlari o'tkazildi hamda transport xizmati ko'rsatishni yaxshilash nazorat oyligi tashkil etildi. Pirovardida yo'lovchilarning xavfsizligini ta'minlashday muhim masala e'tibor markaziga ko'chdi.

Endi bevosita yilning to'rtinchi choragi tahliliga o'tadigan bo'lsak, bu davrda monitoring guruhi tomonidan mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarida e'lon

⁴⁰ Jurnalistlar ijodiy uyushmasi rasmiy sayti: www.jurnalist.uz.

qilingan 200 dan ziyod dolzarb mavzudagi tanqidiy-tahliliy materiallar o'rganildi. Ularning 140 dan ortig'i teleradiomahsulotlar bo'lsa, 60 dan ortig'i davriy nashrlarda chop etilgan maqolalardir. Ularning tahlili materiallar sifati va natijadorligi jihatidan avvalgi chorakdagilarga nisbatan ancha samarali bo'lganini, ayniqsa, bunda jurnalistlar o'zlari qo'l urgan mavzuni doim nazoratda tutib, bu mavzuga qayta-qayta yondashgani, ko'tarilgan muammolar o'z yechimini topishi uchun jonbozlik ko'rsatganidan darak beradi.

2013 yilning so'nggi choragida guruh tomonidan o'rganilgan davriy nashrlar materiallari ham son va sifat jihatidan avvalgilaridan samaraliroq bo'lganini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Mualliflar ko'tarib chiqqan mavzular ko'lami keng va dolzarbdir.

Masalan, “Toshkent xaqiqati”⁴¹ gazetasida (2013 y, 26 oktyabr) chop etilgan “Oqayotgan suvning sifati o'zgaradimi?” sarlavhali maqola Chinoz tumani Amir Temur mahalla fuqarolari yig'ini hududida 5 km suv quvuri yotqizilganiga qaramasdan, ichimlik suvining yo'qligi, suv bor hududlarda esa uning tarkibida inson organizmi uchun zararli bo'lgan og'ir metallar me'yoridan ancha ortiq ekanligiga e'tibor qaratilgan. Maqolada bir nechta dalillar keltirilgan, biroq birgina shu faktning o'ziyoq mavzuning naqadar dolzarb ekanligidan dalolatdir.

“Zarafshon” gazetasidagi (8 oktyabr) “O'yingohmi yo yaylov?” maqolasida Samarqand viloyatining ba'zi tumanlarida sport maydonlarining, bolalar o'yingohlarining ayanchli ahvolga kelib qolganligiga mutasaddilar e'tibori jalb etiladi.

Hamisha dolzarb bo'lib kelgan mavzulardan yana biri sog'liqni saqlash muassasalari bilan bog'liq. Sohani rivojlantirish, xalq salomatligini saqlashga davlatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor, tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar samaralari OAV tomonidan e'tirof etilgan holda, shifo maskanlarida uchrab turgan ayrim kamchiliklar tanqid ostiga olingan. Namangan viloyatidagi “Charxpalak” gazetasining 13 noyabr sonidagi “Qo'l haqi”ga uzatilgan qo'llar yoxud muassasalaridagi ayrim ta'magirliklar xususida” deb nomlangan tanqidiy maqolada ayrim shifokorlarning bemorlarning uzatgan puliga qarab muomala qilayotganlari,

⁴¹ “Toshkent xaqiqati” gazetasi 26-oktyabr 2013-yil.

sharoiti og'ir bo'lgan kasallarning muolajalarini kechiktirayotganliklari va ularning oqibatlari tahlil qilingan.

“Qashqadaryo” gazetasi⁴²ning 2013 yil 22 noyabr sonidagi “Bandlik bilan kim band bo'lyapti? Boshqarmami, kollejmi, bitiruvchimi yoki...” deb nomlangan maqolada kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashdagi asosiy vazifalarga e'tibor qaratilgan. Xususan, yurtimizda bu borada qat'iy choralar olib borilayotgani tahlil qilinib, viloyatda ushbu masalaga yetarlicha mas'uliyat bilan yondashmayotgan mutasaddilarning loqaydligi tufayli kollej bitiruvchilarining 21,9 foizi hali ham ishga joylashtirilmagani, 9615 nafar bitiruvchi oradan besh oy o'tsa-da, ishsiz yurgani keskin tanqid qilingan.

Ma'naviyat masalalari hamisha matbuot diqqat markazida bo'lib keladi. Bu tabiiy hamdir. Zero, ma'naviyatsiz inson kamolotini ham, mamlakat taraqqiyotini ham tasavvur etib bo'lmaydi. Shu ma'noda “Farg'ona haqiqati” gazetasidagi (20 noyabr) “E'tiborga muhtoj koshona yoxud Buvayda tumanidagi madaniyat maskanining bugungi ahvoli haqida”gi maqola e'tiborga loyiqdir. Unda tuman markazida joylashgan madaniyat uyining qarovsiz holatda ekanligi aniq dalillar asosida tanqid ostiga olingan. Shu o'rinda madaniyat uylari mavzusi keyingi yillarda OAVda kam uchrayotganini ham tan olish lozim va bu mavzuga jurnalistlar ko'proq e'tibor qaratsalar, maqsadga muvofiq bo'lardi. Madaniy hordiq chiqarishga moslashgan bunday maskanlarning ayanchli ahvoli, tabiiyki, dolzarb va tez orada bartaraf qilinishi kerak bo'lgan masalalardan hisoblanadi.

“Voha” (24 oktyabr) gazetasidagi “Kuting, kutubxonachi keladi... yoxud kutubxonachi faoliyatidagi ochiq va achchiq gaplar” deb nomlangan maqolada Qashqadaryo viloyatidagi maktablarda Axborot resurs markazlarining talab darajasida emasligi tanqid qilingan. Bu haqda matbuotda ko'p marotaba chiqishlar qilinganiga qaramay, masala hali ham dolzarbligicha qolmoqda.

“Andijonnoma” gazetasidagi (9 noyabr) “Kinoteatrlar: yangisini kurmay turib...” maqolasi ham o'zining dolzarbligini bilan o'quvchilar e'tiborini tortadi Unda

⁴² “Qashqadaryo” gazetasi 2013-yil 22-noyabr soni.

Andijon shahridagi “Cho'lpon”, “Nodira”, “Hindiston”, Paxtaobod tumanidagi “Yoshlik”, Asaka tumanidagi “Do'stlik”, Buloqboshi tumanidagi “M. Ismoiliy”, Xonobod shahridagi “Nodira”, Xo'jaobod tumanidagi “A. Navoiy” kinoteatrlarining zamon talabiga mos emasligi qalamga olingan. Bugungi kunda kino milliy ma'naviyatimiz, aholi madaniy hordiq chiqarishining muhim omili ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, muammo haqiqatda keng yoritib berilgan.

Monitoring davomida mahalliy nashrlarning ma'lum hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni ko'tarib chiqishdagi faolligi oshib borayotganligi kuzatildi. Ularda nafaqat qonunbuzilish holatlari, balki e'tiborsizlik, mas'uliyatsizlik tufayli yuz berayotgan muammolar va ularning oqibatlarini chuqur tahlil qilingan. Masalan, “Qashqadaryo” gazetasining 17 dekabr sonidagi “Rasmiyatchilik uchun tuzilgan shartnomalar yoxud aholi bandligini ta'minlash masalasiga e'tibor qay darajada?” sarlavhali maqolada Qashqadaryo viloyatida “Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida”gi qonun hamda Prezidentimizning 2007 yil 6 apreldagi “Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorining ijro organlari tomonidan bajarilishi natijalari atroflicha yoritilgan. Unda shartnoma majburiyatlarini bajarmayotgan tashkilotlar faoliyati jiddiy tanqid qilingan.

Keltirilgan misollardan ham ko'rinib turibdiki, bugun ommaviy axborot vositalari jamiyatda kechayotgan demokratik islohotlarda faol ishtirok etmoqda va ularning ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatadigan kuchli institutga aylanmoqda. Shu bilan birga, hayotning o'zi qilinishi lozim bo'lgan ishlar oz emasligini ham namoyish etmoqda. Bu haqda so'z borarkan, OAVda e'lon qilinayotgan barcha materiallarda ko'tarilgan muammolar o'z yechimini topmayotganini qayd etish lozim. Tanqid ostiga olinganiga qaramay, xali xanuz ayrim soha va yo'nalishlar, korxonalar va muassasalar mutasaddilari bu muammolarni hal etishgina emas, hatto tahririylarga javob yo'llashga shoshilmayaptilar. Buning oqibatida OAV mavzuga takroran qaytishga majbur bo'lmoqda.

O'tgan 2014 yilda Vatanimizning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayotida

erishilgan yutuq va muvaffaqiyatlarning salmog'i va ko'lami, mohiyati va ahamiyati g'oyat katta bo'ldi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal sur'atlar bilan o'sishi, xalqimiz dunyoqarashi va ma'naviyatidagi ulkan o'zgarishlar, jumladan, davlatimiz rahbarining Surxondaryo viloyatida bo'lib, Termiz shahriga Vatanimizning yuksak mukofoti – Amur Temur ordenini topshirgani, Konstitutsiyamizning yigirma ikki yillik tantanalari, Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlarda o'tkazilgan nufuzli xalqaro konferensiyalar el-yurtimiz tarixidagi ulkan voqea sifatida barcha ommaviy axborot vositalari sahifalarida keng yoritildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, hududiy va nodavlat notijorat nashrlarda tahliliy-tanqidiy maqolalarning ko'plab e'lon qilinayotgani ham diqqatga sazovordir. Buning sababi – viloyat va tumanlardagi mavjud muammolar ushbu nashrlarga ko'proq va yaxshiroq tanish ekanida, albatta. Masalan, “Buxoronoma” gazetasining 22 oktyabrdagi sonida chop etilgan “Chakkaga sabab – chakki ish” nomli maqolada ko'tarilgan masala viloyatdagi boshqa ayrim hududlar uchun ham begona bo'lmasligi mumkin. “Toshkent haqiqati” gazetasining “Suv isrof bo'lmoqda”, “Samarqand” gazetasining “Mahalla qishga tayyormi?” sarlavhali maqolalari ham jamoatchilik e'tiborini joylarda kommunal xizmat ko'rsatish sohasidagi ayrim kamchiliklarga qaratadi.

“Sirdarinskaya pravda” gazetasining 41-sonida jamoatchilik hukmiga havola etilgan “Besplatniy sir bivayet tolko v mishelovke” sarlavhali maqolada Oqoltin tumani, Sardoba aholi punktida istiqomat qiluvchi fuqaro Abror Ergashevning kirdikorlari, ya'ni bir necha hamqishloqlarini qo'shni davlat hududiga aldov yo'li bilan olib o'tib, pul ishlamoqchi bo'lgani haqida gap boradi.

“Xorezmskaya pravda”⁴³ gazetasining 12 noyabr sonida “Pismo chitateley” rukni ostida chop etilgan “Vsyo xorosho, no yest problema” sarlavhali maqola ham e'tiborga loyiqdir. Unda obodonchilik ishlari, uy-joylar va ularga xizmat ko'rsatish sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı chora-tadbirlar bilan bir qatorda ayrim mansabdor shaxslar mas'uliyatsizligi tufayli ko'p qavatli uylarga kommunal xizmat

⁴³ “Xorezmskaya Pravda” gazetasi 2014-yil.12-noyabr soni.

ko'rsatishda ro'y berayotgan ba'zi muammolar tanqid qilingan. Tahririyat oradan bir oy o'tgach, ushbu mavzuga yana qaytgan va gazetaning 13 dekabr sonidagi "Otnosheniye k jilsam "poteplelo" sarlavhali maqolada soha mutasaddilari ko'tarilgan muammo yuzasidan amaliy ishlarga kirishib, isitish quvurlari ta'mirdan chiqarilgani bayon etilgan.

Oktyabr oyida "Andijonnoma" gazetasida "Fototanqid" rukni ostida berilgan fotolavha, "Chirchiq tongi" gazetasining "Fotoaybnoma" ruknida chop etilgan turkum suratlar, "Nishon tongi" gazetasidagi "Arzimizni kimga aytaylik?", "Chortoq haqiqati" gazetasida chop etilgan "Ignadek teshikdan tuyadek sovuq kiradi", "Qashqadaryo" gazetasida e'lon qilingan qator maqolalarda ayrim ta'lim maskanlarida uchrab turadigan muammolarga ba'zi bir mutasaddilar barmoq orasidan qarayotgani dalil va misollar asosida tanqid qilingan.

"Hurriyat" gazetasida chop etilgan "Jamoatchilik nazorati: muammo va yechim", "Sog'lom avlod" nashrining "Avvalo, ko'ngil obodligi", "Buxoro yoshlari" gazetasining "Bog'cha haqida ayrim haqiqatlar" kabi tanqidiy maqolalari mavzusi har xil bo'lsa-da, ular mohiyat jihatidan gazetxonni turmushimizda uchrab turadigan qusur va kamchiliklarga nisbatan murosasiz bo'lishga undaydi. Bunday materiallarda ayrim mutasaddi idoralar boshliqlarining masalaga yuzaki qarashga odatlanib qolgani yoki egallab turgan vazifasiga noloyiq ekani aniq misollar asosida ko'rsatib berilgani, hech shubhasiz, bu kamchiliklarni bartaraf etishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Bu haqda so'z yuritganda, "Toshkent haqiqati" gazetasining 15 oktyabr sonida bosilgan "Oqqo'rg'onni yayov kezganda..." nomli jurnalist kuzatuvda tuman miqyosidagi muammolarga dadil qo'l urilgani va batafsil yoritilganini qayd etish zarur.

Qalamga olingan mavzu va ko'tarilgan muammolarga keng yondashish, tahlil va tanqid qilinayotgan masalalarning yechimi bo'yicha aniq takliflar bildirish, soha mutaxassislarining fikr-mulohazalariga tayanish, har bir nashrning yo'nalishidan kelib chiqqan holda mavzuni tanlash chop etilgan tahliliy materiallarning sifat darajasi va ta'sir doirasini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlash joiz.

E'tirof etish kerakki, bosma nashrlardagi tanqidiy materiallarning mazmun-mundarijasini sinchiklab o'rganish bugungi kunda taraqqiyotimizga to'siq bo'layotgan va islohotlarni ortga tortayotgan muammo va kamchiliklar haqida muayyan tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

“Oila davrasida” gazetasining 20 noyabr sonida “Reklama o'rnida... emas, yoxud nimani targ'ib qilyapmiz?” nomli maqolada xorijiy mamlakatlarda tayyorlangan, ammo tarjima qilinib bizda efirga uzatilgan, ayrim syujetlari milliy qadriyatlarimiz, turmush tarzimiz, oddiy axloq-odob me'yorlariga mos kelmaydigan ba'zi reklamalar haqida kuyunchaklik bilan mulohaza yuritiladi.

“Qumqo'rg'on sadosi” gazetasining 5 noyabr sonida bosilgan “Xo'jasizlik qachongacha yoki qo'rg'onning egasi kim?” sarlahali maqolada Surxondaryo viloyatining Qumqo'rg'on tumanidagi Yangi shahar mavzesining aksariyat ko'chalari ta'mirtalab holatda ekani, mavzeda chiqindi to'plash shoxobchalari mavjud emasligi, hudud svetofor chiroqlari bilan ta'minlanmagani tanqid qilingan.

“Surxon tonggi” gazetasida 13 noyabrda chop etilgan “Iste'molchi huquqini kim himoya qiladi?” sarlavhali maqolada plastik kartochkalarning afzalliklari, ammo, afsuski, ulardan foydalanishda joylarda haligacha turli muammolar mavjudligi Surxondaryo viloyatidagi qator bozorlar, turli savdo do'konlari misolida tanqid qilingan.

Bu borada “Zarafshon” gazetasida berilgan materiallarni alohida qayd etish o'rinli. Gazetaning 4 noyabr sonidagi “Aholi e'tiborsiz bo'lsa, rahbar mas'uliyatni unutadi” maqolasida Samarqand shahridagi ko'pqavatli uylarda kommunal xizmat ko'rsatish sohasida talay muammolar to'planib qolgani B-2 va B-3 uylardagi kamchiliklar misolida qalamga olingan. Gazetaning 25 noyabr sonidagi “Vijdon isimasa, xonadon ham isimaydi” sarlavhali maqolada esa Samarqand shahridagi Yuqori Chordara va Urganji mahallalarida tabiiy gazdan noqonuniy tarzda foydalanib, issiqxonalar tashkil etib olgan kimsalarning qonunga zid xatti-harakatlaridan jamoatchilik ogoh etilgan.

Gazetaning 27 noyabr sonidagi “Bozorda nega fermerning do'koni yo'q?”

sarlavhali maqolada Jomboy tumani bozorlarida, xususan, Shayman dehqon bozorida yetti yuzga yaqin savdo shoxobchasining katta qismi qarovsiz bo'lsa-da, dehqon va fermerlar uchun birorta ham o'rin ajratilmagani afsus bilan qayd etiladi.

“Qashqadaryo” gazetasida ham shu mavzuda o'tkir materiallar chop etilgan. Jumladan, 29 noyabrda “Kassani emas, kissani o'ylash iqtisodiy barqarorlikka xalal beradi” sarlavhali va boshqa maqolalarda Qashqadaryo viloyatidagi “Mang'it Karvon yo'l”, “Chiroqchi tumanidagi “Chiyal g'ururim”, “Ko'ktosh barakasi” dehqon bozorlarida 2014 yilda 484 ta tekshiruv o'tkazilgani, natijada 610 million so'mlik hujjati va sifat sertifikatini bo'lmagan mahsulotlar, kiyim-kechaklar sotilgani ma'lum bo'lgani, “Hokimlik “schyotchik” o'rnatib beradigan idorami?!” maqolasida esa Nishon tumani hokimligida fuqarolar murojaatlari o'z vaqtida va belgilangan tartibda ko'rib chiqilmayotgani tanqid qilingan.

“Oila va jamiyat” gazetasining 2014 yildagi 50-sonida chop etilgan “To'y tomosha maydoni emas” sarlavhali maqolada ko'pchilikni o'ylashga, fikrlashga undaydigan mavzu haqida fikr yuritiladi. Unda to'y marosimlarida yo'l qo'yilayotgan dabdababozlik, milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan yangicha odatlarning urfga aylanayotgani keng jamoatchilikning muhokamasiga tortilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, haydovchilar tomonidan yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini buzish holatlari tez-tez sodir etilmoqda. Buning natijasida ko'ngilsiz voqealar, ba'zan hatto fojiali holatlar kelib chiqmoqda. “Iste'molchi” gazetasining 48-sonidagi “Quvlashmachoq” o'ynagan haydovchilar” hamda “Daryo” gazetasining 51-sonidagi “Shoshqaloq haydovchining dastidan dod!” sarlavhali materiallarda aynan shu dolzarb masala bayon etilgan. Ularda “kimo'zar”ga harakatlanayotgan jamoat transporti boshqaruvchilari nafaqat o'zlari, balki yo'lovchilar hayotini ham xavf ostiga qo'yayotgani kuyinchaklik bilan ta'kidlanadi.

Ommaviy axborot vositalarining oktyabr, noyabr, dekabr oylaridagi faoliyatida yuqoridagi kabi misollarni ko'plab kuzatish mumkin. Ayniqsa, tanqidiy materiallarning, aniq manzil va ob'ektlar asosida, mavjud muammolar yechimiga qaratilayotgani jurnalistlarimizning tobora hayotiy masalalarga chuqurroq kirib,

zamon bilan hamnafas ish olib borayotganini ko'rsatadi. Eng muhimi, bunday mavzular dolzarbligi, xilma-xilligi bilan hech kimni loqayd qoldirmaydi, gazetxonlarda fikr uyg'otadi, ularning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Afsuski, ommaviy axborot vositalarida tanqid qilingan tashkilot, muassasalar rahbarlarining javob xatlari matbuot sahifalarida hamma vaqt ham ko'zga tashlanmayapti. Aslida davriy nashrlarda tahliliy-tanqidiy materiallarni chop etishdan maqsad hayotimizda mavjud bo'lgan nuqson va kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat ekanini unutmasligimiz lozim.

Shuning uchun har bir nashrda “Mavzuga qaytib”, “Bizga javob beradilar”, “Aks sado” kabi ikki tomonlama muloqot minbariga aylanishi mumkin bo'lgan ruknlar izchil berib borilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shundagina jurnalist so'zi jamoatchilik orasida yanada keng e'tibor qozonib, uning ta'siri kuchayadi. Chunki, bugun davrning o'zi ommaviy axborot vositalari va jurnalistlardan yon-atrofimizda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga tezkor munosabatni, fuqarolik pozitsiyasini aniq-ravshan bildirishni talab qilmoqda.

“Hurriyat” gazetasining 2015 yil 7 yanvar sonida “Mahalliy nashrlar faoliyatidan” rukni ostida Akmal Jumamurotovning “Zarafshon”ning soyasi hammaga ham yetmaydi” maqolasi e'lon qilindi. Mazkur materialda Samarqand viloyatida chop etilayotgan gazetalar xususida so'z yuritiladi. Xususan, viloyatning markaziy nashrlaridan biri “Zarafshon” gazetasida tahliliy-tanqidiy maqolalar soni salmoqli ekanligi, mavjud muammolarni bartaraf etishga kurashuvchanlik sezilishi, so'roq shaklidagi sarlavhalarning ko'pligi e'tirof etiladi. Misol sifatida 2014 yil 6 sentyabr sonida e'lon qilingan A.Sherloxov muallifligidagi “Kim qiladiya, shuginaniya” maqolasi tilga olinadi. Mazkur tahliliy-tanqidiy materialda Samarqand viloyatining Ulug' Tursunov ko'chasiga kiraverishdagi holat – “ikki oy burun yo'l kovlanib oqava suv uchun yangi quvurlar yotqizilgani, lekin buzilgan yo'lni sozlash mutasaddilarning yodidan ko'tarilgani” tanqid qilinadi.

Bundan tashqari, viloyatning “Samarqand” gazetasida ham ayrim tahliliy maqolalarni topish mumkinligi, shunga qaramay unda axboriy hamda sud hukmi

asosida tayyorlangan materiallar ko'pligi haqida mulohaza yuritilgan. Shu bilan birga, viloyatning aksariyat nashrlari – “Bulung'ur hayoti”, “Urgut sadosi”, “Qattaqo'rg'on haqiqati”, “Ishtixon ovozi”, “Paxtachi”, “Qo'shchinor”, “Jomboy tongi”, “Gulobod tongi” kabi gazetalar, muallif fikricha, tanqiddan qo'rqibmi, “yuz-amri issiq” qabilida yo'l tutibmi, xullas, “bo'lib o'tdi”laru bir dasta alqovlardan nariga o'tmayapti.

Jurnalistik tahlil quyuqligi masalani atroflicha o'rganish imkonini beradi. Universal mohiyat kasb etadigan munosabat boshqaruvi xolis pozitsiyani ilgari suradi. Muxbir tahlili ortida yotgan hayot haqiqati jamiyatni befarq qoldirmaydi, unda millat ideali va maqsad-intilishlari, xalq qadriyatlarini mezonlari ifodasi o'z real ifodasini topadi.

Jamiyatda yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Ayniqsa, juda katta bosim va shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi hayotimizda boshqa sohalar qatorida jurnalist kadrlarga bo'lgan talab ham ortib bormoqda. Bu bejiz emas albatta. So'nggi yillarda mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarining son va sifat jihatdan o'sishi, uning jamiyat taraqqiyotidagi faolligi sezilarli darajada oshishiga xizmat qildi. Jamiyatimizning turli jabhalarida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlarining ustuvor va dolzarb yo'nalishlarini keng yoritish, aholining fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda OAVning ta'siri kuchaydi, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida jurnalistlarning ishtiroki, professional mahorati va ijodiy faolligiga talablar ortib borayotir.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov ta'biri bilan aytganda: “Jahon miqyosida globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jarayonida egallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora oshib borayotgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lishimiz shart.”⁴⁴Bu fikrlar jamiyatning ko'zi va qulog'i bo'lgan jurnalistlar faoliyatiga bevosita va bilvosita taalluqlidir. Chunki hozirgi taraqqiyot yo'lida turli xil muammolar, g'oyaviy tahdidlar,

⁴⁴Karimov. I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O'zbekiston, 2009.

iqtisodiy inqirozlar, biologik xurujlar, tabiiy ofatlar insoniyatga tashvish keltirayotgan bir paytda, ayniqsa, yurtimizga chetdan ko'lami va miqyosi jihatidan o'lchab bo'lmaydigan axborotlar oqimi kirib kelayotgani, ularning orasida xalqimiz, yoshlarimiz ongiga ta'sir qiluvchi yot va zararli g'oyalarning mavjudligi jurnalistlar zimmasiga har qachongidan ham jiddiy mas'uliyat yuklaydi. Turli xil shov-shuvlar, oldi-qochdi ma'lumotlarning ichidan to'g'risini ajratib olish, turli axborot xurujlarining ta'siriga tushgan har bir inson, mamlakat fuqarosi to'g'ri so'zni, haqiqiy ma'lumotni ommaviy axborot vositalari va unda faoliyat olib borayotgan jurnalistlardan kutadi. Ular bergan axborotga ishonadi.

Haqiqatni yetkazishda, jurnalistdan avvalo, chuqur bilim, teran mushohada, keng ko'lamdagi tahlil, xolis munosabat va albatta, professional mahorat talab etiladi. Shu nuqtai nazardan zamonaviy jurnalist kadrlarni tayyorlash, mahoratini yanada oshirish, ularni bugungi kun talablariga muvofiq shakllantirish, asosiy prinsiplari va axloq mezonlari ustuvorligini ta'minlash hamisha muhim masalalardan hisoblanadi.

2.3. O'zbekiston Respublikasi viloyatlarida faoliyat olib borayotgan hududiy nashrlarning qiyosiy tahlili

Respublikamizning turli viloyatlarida faoliyat olib borayotgan hududiy nashrlarda yoritilayotgan mavzular xilma-xil va rang-barangdir. OAVning asosiy vazifasi o'z auditoriyasiga aniq, tezkor va holis axborot yetkazishdir. Shu jumladan, matbuot ham. Gazeta sahifalaridan o'rin olgan har bir material jamiyat a'zolarining dunyoqarashi kengayishi, teran fikr va shaxsiy xulosasiga ega bo'lishiga xizmat qilishi lozim. Ayniqsa ijtimoiy-siyosiy gazetalarda bu asosiy o'rinda turadi. Biroq, shu o'rinda haqli savol tug'iladi, bugungi nashrlar o'z oldidagi bu kabi vazifalarni qay darajada ado etayapti, oldiga qo'yilgan talablar bajarilayaptimi yoki ommani qiziqтира olyaptimi? Ushbu savollarga viloyat gazetolari o'rtasidagi qiyosiy tahlil orqali javob topishni joiz deb bildik.

Dastavval, yana bir savol bilan yuzlansak, viloyatdagi ijtimoiy-siyosiy nashrlarni majburiy obunachilardan tashqari kimlar olib o'qiyapti? Nazarimizda deyarli hech kim. Majburiyat yuzasidan bu gazetalarni varaqlashga kimdir jazm qilmasa, axoli bu kabi nashlar viloyatidagi ijtimoiy-siyosiy hayotida ro'y berayotgan voqea-hodisalardan ularni xabardor qilish, ularning bu boradagi saviyasini oshirish uchun chop etilayotganini bilmaydi ham. Buni birgina ko'ngilochar gazetalarining yuzdan oshig'i qatorlashtirib qo'yilgan matbuot shahobchalariga bu turdagi nashrdan atigi 4-5 tasi topshirilishi misolida ko'rishimiz mumkin. Chunki matbuot shahobchalariga ham nashrlar aholining ehtiyoj va talabidan kelib chiqib buyurtma asosida keltiriladi. Shundan xulosa qilishimiz mumkinki, auditoriya o'z hududidagi bu turdagi gazetalaridan qoniqishmayapti. Bining sababini esa quyidagi qiyosiy tahlillarimiz orqali ko'rib chiqamiz.

Birinchi bo'lib nazarimiz tushgan gazeta Shahrizabz tuman hokimligi va xalq deputatlari tuman kengashi muassisligidagi "Kesh" gazetasi bo'ldi. To'g'ri undagi materiallarning rang-barangligi tahsinga loyiq. Chunki, gazeta sahifalarida qonunlar tahlili, siyosiy hayot va ijtimoiy masalalar, shuningdek qiziqarli ma'lumot va xabarlar ham o'rin olgan. Oddiygina misol, gazetaning 2013-yil, 18-iyuldagi 29-sonidan "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni, "Hizmatigizga balli, g'allakorlar", "Mahallaning mavqei oshmoqda", "Ta'magir "Oper", "Ozaman desang, kuniga ikki marta ovqatlan" kabi sarlavhali turli mavzu ko'lamdagi materiallar o'rin olgan. E'riborli jihati ana shunday keng qamrovli jurnalistik asarlar yozilgan bo'lsada, ularda joylashuv o'rni yo'q. Oddiygina misol, xabar ko'rinishida yozilgan materillar bor, lekin har sahifaning turli burchaklaridan joy olgan. Masalan, "Topqirlik va zukkolik bahsi" sarlavhali xabarning bir tomida "Aks-sado" ruknidagi "Kitobmi yoki internet?...", ostida ham shu rukndagi "Sahnamizdagi ommaviy madaniyat" sarlavhali materiallar va boshqa bir tomonida "Xronologiyani o'rganishning muhim jihatlari" nomli maqola turibdi. Axamiyatlisi sahifadan to'rttagina material o'rin olgan bo'lsada ular bir biriga na mazmun, na janr nuqtai nazaridan yaqin. Yoki, biz

gazetaning ohirgi sahifalarida ko'rishga odatlangan sportga doir material gazetaning asosiy qismiga qo'yilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, gazeta materiallari ma'lum me'yor va talablar asosida emas, qayer bo'sh bo'lsa o'sha yerga joylashtiriladi.

Aynan shu jarayonni solishtirish maqsadida Farg'ona viloyati hokimligining bosh nashri "Farg'ona haqiqati" gazetasini olib ko'rdik. Va undagi materiallarning joylashuvi, ularni yozishdagi yondashuv Respublika nashri "Xalq so'zi" gazetasini eslatishiga guvoh bo'ldik. Xatto gazetaning ohiridagi "Reklama va e'lonlar" ham e'tiborga molik. Boisi, undan "Farg'ona viloyat va tumanidagi tadbirkorlarga ijaraga taklif etilayotgan foydalanmay bo'sh turgan ob'ektlar ro'yhati", "Yilning eng faol jurnalisti"⁴⁵ ijodiy tanlovi haqidagi, umuman olganda o'quvchiga asqotishi mumkin bo'lgan mavzulardagi reklama va e'lonlar joylashtirilgan. Aynan shunga e'tiborni qaratganimiz sababi gazetada nashr qilinayotgan har bir material tanloviga alohida ahamiyat qaratilishini kichik misolda ko'rsatmoqchi edik. Ana endi bevosita jurnalistik materiallarga to'xtalsak jurnalistik asarlarning sarlavhalarida ham bu yaqqol ko'zga tashlanadi.

Gazetaning 2015-yil, 29-aprel, 34-sonidagi "Sening baxtli yoshliging menda bo'lsaydi...", "Sakkizinchi mo'jiza", "Egizak taqdirli egizaklar" sarlavhalar bevosita o'quvchini qiziqtirib qo'yadi. Bundan tashqari joylashtirilgan har bir surat ham jarayonni aks ettirgani va jonli ko'rinishda bo'lgani uchun materiallar yanada yorqinroq ko'zga tashlanadi. Biroq yuqorida keltirilgan kamchiliklar ushbu nashrda ham ko'zga tashlanmasdan qolmaydi. Chunki gazetada har bir material o'z mavzu-ko'lami doirasidagi ruknlar ostida beriladi. Turli anjuman va yig'ilishlar esa "Tadbir" ruknida joylashtiriladi. Gazetaning mazkur sonida esa bir emas ikkita sahifasida ushbu rukn ko'zga tashlandi. Bittasi nihoyatda kichik, bittasi o'rtacha hajmdagi xabarlar ketma-ketlikda emas, qayerda bo'sh joy bo'lsa o'sha yerga to'ldirish uchun qo'yilganiga guvoh bo'lasiz. Yoki bo'lmaganda habarlarning mohiyatidan kelib chiqib o'z o'rnida qo'yilgan deya ham talqin qilish mumkin. Chunki oldingi sahifadagi xabar "Adolat" SDP viloyat kengashi plenumi, keyingi sahifadagisi esa

⁴⁵ "Farg'ona haqiqati" gazetasini. 2015-yil, 29-aprel, 34-son

“Farzandinga kitop sovg’a qilaman” nomli tadbir haqida edi. Agar shundan kelib chiqadigan bo’lsak ularni alohida-alohida bergan ma’qul lekin har bir rukn gazeta sahifasining ma’lum joyiga moljallangan bo’lgani maqsadga muvofiq.

Xorazm viloyati hokimligi muassisligidagi “Xorazm haqiqati” gazetasida esa birinchi bo’lib uyushtirilgan suratlar ko’zga tashlanadi. Ma’lumki, matbuotdagi materiallarning mohiyatini ochishda emg muhim vositalardan biri bu rasmdir. Shunday ekan u qanchalik tabiiy bo’lsa, mushtariyda shu darajada yorqin taassurot qoldiradi. Shu boisdan gazeta materiallarini sahifalashda, suratlarni tanlash va joylashtirishga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Bundan tashqari gazeta sahifalarida matbuot uslubiga xos bo’lgan muayyan ruknning yo’qligi taajjublanarli bo’ldi. Bu degani biror bir janr yoki mavzudagi material o’z o’rniga ega emas, qayerga to’g’ri kelsa shu yerdan qo’nim topadi. Aynan mana shu holatning o’zi gazetada belgilangan ma’lum talab va tartibning yo’qligidan dalolat beradi. Misol uchun, gazetaning 2012-yil, 1-avgustdagi 61-sonida “TV dasturlari” berilgan bo’lsa, shu yilning 15-avgustdagi, 65-sonida u mavjud emas.

Viloyatlardagi matbuot nashrlarini kuzatar ekanmiz, ularning har birida o’z hududiga hos bo’lgan qarash, fikrlarning guvohi bo’lasiz. Xatto so’zlarni qo’llanilishida ham viloyatlarning o’ziga xosliklari ko’zga tashlanadi. Misol uchun Xorazm viloyatining gazetasida “-moqda” (kelmoqda, bo’lmoqda) qo’shimchasi ko’pincha “-yotir” (kelayotir, bo’layotir) tarzida ishlatiladi. Bu vohaning shevasiga xos bo’lgan xususiyatlarni namoyon qiladi. Yoki Farg’ona viloyatining gazetasida adabiy tilning go’zal leksikasidan ko’proq foydalaniladi. Misol uchun, “Bir dunyoning ikki bo’stoni”⁴⁶, “O’zga yurtida sarson bo’lmay, o’zga yurtida mardon bo’l...”⁴⁷ kabi jumlar uchraydi. Bundan tashqari sarlavhalar tanlanishida ham “Farg’ona haqiqati” “Kesh” va “Xorazm haqiqati” gazetalaridan ustunroq ekanligi ko’zga tashlanadi. Misol uchun “Farg’ona haqiqati” gazetasida “Sahro qo’ynidagi mo’jiza”, “Buxorolik jurnalistlar Farg’onada”⁴⁸ “To’yxona tomoshaxonami?”⁴⁹ kabi,

⁴⁶ “Farg’ona haqiqati” gazetasi. 2015 -yil, 4-aprel, 27-son

⁴⁷ O’sha manba. 2015-yil, 18-aprel, 31-son

⁴⁸ O’sha manba. 2015-yil, 18-aprel, 31-son

⁴⁹ O’sha manba. 2015 -yil, 4-aprel, 27-son

“Kesh” gazetasida esa “Ustuvor vazifalar belgilandi”, “Tuman kengashi sessiyasi”⁵⁰, “Mahallaning mavqei yuksalmoqda”⁵¹ singari, “Xorazm haqiqati” gazetasida esa “Olg’a intililadi Xonqa karvoni barakali erur paxtasi, doni”, “Maktab bozori: o’quvchilar uchun”, “Luqmai halol barakadan”⁵² qabilidagi sarlavhalar uchraydi. Ularni yozishdagi, tanlashdagi va qo’llashdagi tafovutlarni yuqoridagi misollarda ko’rish mumki. Va mana shu sarlavha gazeta nashrlarining saviyasi va mohiyatini ochib beradi. Birgina u orqali o’quvchini o’ziga jalb etish imkoni bor ekan, bundan unumli foydalanish kerak. Shunday ekan materialga joylashtirilgan surat va keltirilgan sarlavha bir-biriga mutanosib bolishi kerak. Misol uchun, “Kesh” gazetasining 2012-yil, 2-avgustdagi 31-sonida Abdurahim Abdusamadovning “Erkakning joni bitta bo’ladi” sarlavhali hikoyasi berilgan. Biroq suratda bir qiz tasvirlangan. Mushtariy esa uni o’qib ko’rmaguncha qizning rasmi nega qo’yilganligini bilmaydi. Sarlavhani o’qib o’zicha tahmin qilishga va taassurotga ega bo’lishiga esa suratdagi tasvir imkon bermaydi. Yoki “Xorazm haqiqati” gazetasining 2012 yil, 2-avgustdagi 31-sonida chop etilgan “Maktab bozori: o’quvchilar uchun” sarlavhasini olib ko’raylik. Bir qarashda gap mazmunida mantiqsizlik yuzaga kelgandek taassurot qoldiradi. Chunki maktab bozorining o’zi nomi bilan kim uchun atalganligini ko’rsatib turibdi. Ya’ni u o’qituvchilar yoki talabalar emas, aynan o’quvchilarga atalganligi ma’lum. Shunday ekan materialga bunday sarlavha tanlash noto’g’ri. Shuning uchun journalist nihoyatda ziyrak, sinchkov va e’tiborli bo’lmog’i lozim. Mavzu, yondashuv tanlashda ham ijodkor har tomonlama o’ylab ko’rishi kerak. Biroq bu borada hududiy nashrlarda yuqoridagi kabi ayrim kamchiliklar ko’zga tashlanadi. Qachonki ularni bartaraf etar ekanmiz, ana shundagina xalqimiz matbuotni eng yaqin do’sti, hamfikir, hamdami deb bilib, doimo u bilan hamroh bo’ladi.

⁵⁰ “Kesh” gazetasi. 2012 -yil, 2-avgust, 31-son

⁵¹ O’sha manba. 2013 -yil, 18-iyul, 29-son

⁵² “Xorazm haqiqati” gazetasi. 2012 -yil, 2-avgust, 31-son

XULOSA

Bugungi kunda hududiy nashrlarning ham salmoq va imkoniyat darajasi kengayib bormoqda. Mazkur yurtimizdagi hududiy nashrlarning shakli, mazmuni, mahorat masalalariga bag'ishlangan tadqiqot ishini o'rganish asnosida quydagilar xulosa qilinadi:

- Zamonaviy hududiy nashrlar tizimida gazetalar, jurnallar, davriy nashrlar, haftaliklar muhim ahamiyat kasb etadi chunki ular jamiyat tashkilotlari bilan xalqni bir-biriga chambarchas bog'lab turadigan vositalar ichida eng muhim hisoblanadi.
- Viloyatlardagi zamonaviy hududiy nashrlar faoliyati, hususan har bir hududdagi milliy matbuotning shakllanish jarayonlari va tarixiy bosqichlarini o'rganish ham qiziq, ham muhim ahamiyat kasb etadi.
- Toshkentda dastlabki davriy nashr "Turkestankiye vedomosti" gazetasi Turkiston general-gubernatori Kaufmanning farmoniga ko'ra 1870-yil 28-aprelda (10 mayda) bosilib chiqdi. Ushbu gazetaga ilova sifatida "Turkiston viloyatining gazetasi" ham chiqqa boshlaydi. 1907 yil 1 dekabridan Toshkentda A.Avloniy muharrirligida "Shuhrat" gazetasi chiqqa boshladi. Shuningdek, Toshkentda "Tujjor" (1907, muharriri Saidkarim Saidazimboy o'g'li), "Osiyo" (1908, muharriri Ahmadjon Bektemirov) kabi gazetalar ham chiqqan bo'lib bu gazetalarning hech biri uzoq yashamagan. Biroq ular milliy matbuotining poydevori bo'la olgan.
- Hududiy nashrlarimiz faoliyatida ham ayrim kamchilik va muammolarga duch kelamiz. Masalan, viloyatlarimizda chop etilayotgan ko'plab mustaqil ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy gazetalarda imlo xatolari, ayrim kamchiliklar yaqqol ko'zga tashlanadi. E'tiborlisi, bu xato va kamchiliklar gazetaning ilk sahifalari, qo'yingki, jurnalistik material sarlavhasida ham uchraydi.
- Shuningdek, hududiy nashrlarda aholini o'ylantirayotgan muammo, kamchiliklar va dolzarb masalalarni yechimiga qaratilgan tanqidiy ruhdagi jurnalistik asarlar deyarli yo'q. OAvning nazorat qiluvchanlik va boshqaruvchanlik funksiyasi

nazardan chetda qolmoqda.

- Shu bilan bir qatorda ayrim hududiy nashrlardagi kamchilik va muammolarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda.
- Keyingi vaqtda ommaviy axborot vositalari, ijod ahli mamlakatimiz hayotining turli sohalaridagi muammolarni yoritishga yanada mas'uliyat bilan yondashmoqda. Bunda asosan ikkita yo'nalish: yurtimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlar hamda jamiyat ma'naviy-madaniy hayotiga doir masalalarni milliy manfaatlar nuqtai nazaridan tahlil qilish, erishilgan yutuqlarni e'tirof etish bilan birga, mavjud muammolarga tahliliy, tanqidiy ko'z bilan qarash mas'uliyatining ortib borayotganini alohida ta'kidlashimiz lozim.

Shulardan kelib chiqib mavjuda muammo va kamchiliklarni bartaraf etish va hududiy nashrlarning mavqeini oshirishga qaratilgan bir qator taklif va tavsiyalarni berishni joiz deb bildik.

Birinchi, avvalo, hududiy nashrlarning ommabopligini ta'minlash lozim. Buning uchun esa, ayni navbatta hududiy nashrlaridagi bir xillikdan halos bo'lib, yangicha ijodiy yondashuv bilan xalqni ichiga, qalbiga kirib borish kerak.

Ikkinchi, xalqning dardini yoritish, muammolariga yechim topishga ko'maklashish, jumboqli masalalarga oydinlik kiritishlari uchun esa hududiy gazetalarda faoliyat yuritayotgan jurnalist kadrlar salohiyati, malakasi, ijodiy qobiliyati va saviyasini oshirish darkor.

Uchinchi, jurnalistika xalq va hokimiyat o'rtasidagi ko'prik vazifasini o'tashi lozim. Shunday ekan, jurnalist bir tomonlama bo'lib qolmasligi, har bir masalaga ochiq va holis nigoh bilan qaramog'i zarur. Hududiy nashrlarda esa buni talab darajasiga ko'tarish lozim.

To'rtinchi, OAV jamiyatning yuzi ekan, omma oldida savodsiz, saviyasiz kabi taassurot qoldirmasligi kerak. Ayniqsa, matbuot nashrlarda mavjud imloviy va ju'ziy xatoliklar ana shunday xulosa chiqarishga turtki bo'ladi. Shunday ekan, ularni bartaraf etish va gazeta saviyasi va mavqeini oshirishga erishish darkor. Mas'ullar

tomonidan sinchkovlik bilan tahrir qilinib, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan ijodiy kamchilklarning oldini olishga erishish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, gazetalar o'rtasida halol raqobatni yuzaga keltirish lozim. Bu esa jurnalistlarni faqatgiza izlanishga va yangilikka intilishga undaydi, nazarimizda. Ana shundagina gazeta sahifalaridagi bir xillik va zerikarli qarashlar barham toparmidi?!

Umuman olganda, hududiy nashrlar katta kuchga ega. Faqat buni ko'rsata olish, undan unumli foydalana bilish va bu orqali xalq farovonligiga hissa qo'shish muhim hisoblanadi. Qachonki, hududiy nashrlar o'sha yerlik aholining isonchli suyanchiga aylana olsa, ana shundagina o'z vazifasini o'tayotgan sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2014.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi Qonuni. Ommaviy axborot vositalari faoliyati sohasidagi me'yoriy huquqiy hujjatlar to'plami. – T.: 2009.
3. O'zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsplari va kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni. Ommaviy axborot vositalari faoliyati sohasidagi me'yoriy huquqiy hujjatlar to'plami. – T.: 2009.
4. O'zbekiston Respublikasining “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida”gi Qonuni. Ommaviy axborot vositalari faoliyati sohasidagi me'yoriy huquqiy hujjatlar to'plami. – T.: 2009.
5. O'zbekiston Respublikasining “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida”gi Qonuni. Ommaviy axborot vositalari faoliyati sohasidagi me'yoriy huquqiy hujjatlar to'plami. – T.: 2009.

II. Prezident asarlari:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Manaviyat, 2008.
2. Karimov.I.A.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent.: O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin, 2-jild, Toshkent 1996.
4. Karimov I.A. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. //Xalq so'zi, 2009 yil 27 iyun.
5. Karimov. I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O'zbekiston, 2009.

III. Maxsus adabiyotlar:

1. Abduazizova N. Turkiston matbuoti tarixi. Toshkent. "Akademiya", 2000.
2. Abduazizova N. Toshkent matbuoti. Toshkent. "Akademiya", 2010.
3. Abduazizova.N. O'zbekiston jurnalistika tarixi. T.: "Akademiya", 2002 y.
4. Avloniy. A. "Burung'i o'zbek vaqtli matbuotining tarixi". "Milliy uyg'onish" to'plami. T., ToshDU,1993.
5. OAV va jamoatchilik nazoratiga doir davlat siyosati:tamoyillari, rivojlanish bosqichlari, istiqboli. Toshkent. "Akademiya" 2014y.
6. Zapiski russkogo arxeologicheskogo obshestva. Vostochnoye otdeleniye. T.X., 1896.
7. Farg'ona jurnalistikasi .Toshkent. "Sharq", 2009 y.
8. Ziyo Said. O'zbek vaqtli matbuoti tarixi materiallari. Tanlangan asarlar. Toshkent 1974.
9. Pidaev T., Do'stqoraev B., "Taraqqiy" gazetasi. "Xalq So'zi" gazetasi. 1993.11 iyun.
10. Saidov X. Bexbudiy va "Samarqand" Gazetasi O'zbekiston matbuoti 1996 yil.
11. Hasanov SH. O'zbek jurnalistika tarixi. Samarqand 1998.
12. Avloniy A. Ikki jildlik. 1998.
13. Avloniy A. "Toshkent tongi" T., 1978 yil.
14. Avloniy A. "Turkiy guliston yohud Ahloq" T., "Manaviyat ", 1998 yil.

IV. Matbuot nashrlari:

1. "Farg'ona haqiqati" gazetasi. 10-yanvar, 2015 yil, 3-son
2. "Farg'ona haqiqati" gazetasi. 25-fevral, 2015 yil, 16-son
3. "Farg'ona haqiqati" gazetasi. 4-aprel , 2015 yil, 27-son
4. "Farg'ona haqiqati" gazetasi. 18-aprel , 2015 yil, 31-son
5. "Farg'ona haqiqati" gazetasi. 22-aprel , 2015 yil, 32-son
6. "Farg'ona haqiqati" gazetasi. 29-aprel , 2015 yil, 34-son

7. “Kesh” gazetasi. 17- yanvar, 2013- yil 3- son.
8. “Kesh” gazetasi. 3- may, 2012- yil 18- son.
9. “Kesh” gazetasi. 18-iyul, 2013- yil 29- son.
10. “Kesh” gazetasi. 25- iyul, 2013- yil 30- son.
11. “Xorazm xaqiqati” 15 - avgust 2012- yil 65-son.

V. Internet manbalari:

1. www.jurnalist.uz
2. www.nimfogo.uz
3. www.gazeta.uz
4. www.sharh.uz
5. <http://www.api.uz/uz/content/statistics>